

- -
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

Navoiy davlat pedagogika instituti

«Umumiy tarix» kafedrası

Bitiruv malakaviy ishi

**Mavzu: O`rta asrlar Yevropa davlatlari
numizmatikasini o`rganishda qiyosiy tahlil
usullaridan foydalanish**

**Bajardi: Tarix fakulteti
4 – kurs “A” guruh talabasi
O`rinov Dilshod Normurodovich
Ilmiy rahbar: dots. R. N. Tolibov**

Navoiy 2013

Mavzu: O`rta asrlar Yevropa davlatlari numizmatikasini o`rganishda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish.

I. Kirish

I. Bob . Numizmatika tarix fanini o`rganishda yordamchi manba.

- 1.1. Antik davr tanga pullari
- 1.2. O`rta asrlar Yevropa davlatlari numizmatikasi.
- 1.3. O`rta asrlar Yevropa davlatlari numizmatikasini davrlashtirish.

II. Bob. G`arb va Osiyo davlatlari xalqlarining savdo va madaniy aloqalari va uning tanga pul muomalasiga ta`siri (V - VII asrlar)

- 2.1. Vizzantiya, Xitoy tanga zarbi an`analarininig Turk xoqonligi tangalariga ta`siri o`rganishda interaktiv usulidan foydalanish.
- 2.2. X- XII asrlarda Movarounnahr tangalari va uning Yevropa davlatlari bilan o`zaro aloqalaridagi o`rni.

III. Xulosa

IV. Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston mustaqillikka erishganligi tufayli, jamiyatimizning hamma sohalarida jiddiy o'zgarishlar davri boshlandi. Shu jumladan tarix fani oldida ham yangi-yangi muammolar ilmiy izlanishlarni taqozo qilmoqda. Ayniqsa, bu vazifani bajarishda yoshlarning intilishlari, fidoiyligi talab etilmoqda. Prezidentimiz I.A. Karimov, "Men avvalambor shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishi, bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqealigiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashi zarur"¹ deb ta'kidlaganlarida, naqadar haq edilar.

Tarix fanining yordamchi sohaları ichida o'z o'rniga ega bo'lgan numizmatika, mamlakatimiz istiqloлга erishgandan keyin uning nufuzi yanada ortdi, mustaqil tarix fani sifatidagi maqomga ega bo'ldi. Chunki tariximizni o'rganishda tangashunoslik fanining ahamiyati beqiyosdir. Tangalar bizga eramizdan avvalgi davrdan to hozirgi kungacha bo'lib o'tgan tarixiy voqealar siyosiy iqtisodiy, ayrim hollarda esa millatlarning e'tiqodiy dunyoqarashlari haqida ma'lumot beradi. "Numizmatika" so'zi grekcha "**nomisma**"-ya'ni tanga pul yoki chaqa pul degan ma'noni anglatadi. Tangashunoslik oltin, kumush va misdan ishlangan metall pullarni o'rganish haqidagi fandır. Ushbu sohaga bundan tashqari yana qog'oz pullarni o'rganish (**bonistika**) va orden, medal hamda shu xildagi esdalik tamg'alarni (**znachoklar-florestika**) o'rganish ham kiradi. **Mavzuning maqsad va vazifalari.** Tanga pullarning paydo bo'lishining ham o'z tarixi bor. Arxeologik qazishlarning guvohlik berishicha, tosh asrda ham qabilalar o'rtasida turli xil ashyolar ayriboshlangan. Qabila va jamoalardagi mehnat taqsimoti moddiy va ehtiyoj buyumlarini ayriboshlashning rivojlanishida asosiy omil bo'lgan edi. Ana shu tovar ayriboshlash natijasida ma'lum miqdorda mol ortib qolgan. U boshqa molar narxining ekvivalentiga aylangan. Ana shu asnoda birinchi pullar paydo bo'la boshladi.

¹ Karimov. I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. T. "Ma'naviyat", 2008. 17- bet.

Qadimiy xalqlarda pulning shakllanishi ham turlicha bo'lgan. Masalan, Osiyo va Afrika xalqlari pulning eng sodda formasi chig`a-noqlardan uzoq vaqt mobaynida foydalanib kelishgan. Yaponiya, Xitoy va Hindiston mamlakatlarida ham chig`anoqlar pul sifatida ishlatilgan. Ba`zan, Hindistonda dur pul sifatida ishlatilgan. Melaneziyada “cho`chqa pullari” deb ataladigan pullar bo'lgan. Yoinki, Osiyo va Afrikaning mamlakatlarining ayrimlarida kauri nomli chig`anoq, munchoq, it tishlari va cho`chqa dumlari boylami, Afrikaning ba`zi qabilalarida xurmo mevasi pul vazifasini o'tagan. Ayni paytda jahonning ko'p xalqlari tovarlarni ishlab chiqarish qurollari yoki qoramollar, qo`ylar bilan belgilashgan.

Ayriboshlash - har doim va turli sharoitda qiymati birdek o'zgarmaydigan, qo'llash oson bo'lgan baho o'lchovini taqazo qilardi. Mana shunday savdo shartlariga yangidan paydo bo'lgan metall pul javob bera boshladi, bu o'z navbatida savdo muomalasida mavjud bo'lgan pulning barcha mavjud formalarini siqib chiqardi. Metal pular qismlarga bo'linishi, qimmat yombini arzon qilish mumkinligi jihatidan ham ahamiyatli edi. Tilla va kumushdan tayyorlangan pullar esa qulay va qimmatli pul hisoblanardi.

Kishilar asta-sekin ma`lum og'irlikdagi yombilar tayyorlay boshladilar. Lekin metal pullarda hali aldanish imkoniyati yashirinib yotardi. Chunki kishilar mis va qo'rg'oshin singari arzon metallarni oltin va kumush parchalariga aralashtirar edilar. Hukumat bu firibgarliklarga chek qo'yish maqsadida o'zi zarb qilgan metal pullarga muhr bosib chiqara boshladi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Pulning paydo bo'lishi qadimgi zamonlarda taraqqiy etgan madaniyatlar ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishlarining qonuniy oqibatidan kelib chiqqan tabiiy hodisadir. Tovar ayirboshlashning uzoq hamda murakkab jarayoni va chakana savdoning rivojlanishi tovar-pul hamda qimmatbaho buyum (yombi) ishlatish bosqichidan o'tib, oxir – oqibatda ma'dan tanga paydo bo'lishiga olib keldi. Birinchi tangalarning o'ng yoki tersida ularning o'lchovi to'g'ri, og'irligi to'la ekanligini tasdiqlovchi rasm – muhri bilan qimmatbaho buyumdan (yombi) farqlanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Biz malakaviy ishimizda O'rta asrlar Yevropa davlatlari numizmatikasini qiyosiy tahlil usullaridan foydalanib o'rganishni bosh vazifa qilib oldik. Binobarin, O'rta asrlar Yevropa davlatlarining Osiyo mamlakatlari tangalariga ta'siri nihoyatda katta. Bugunda uning farqli tomonlarini o'rganish, qiyosiy tahlil etish bitiruv malakaviy ishimizni maqsad, mazmunini tashkil etadi. Ayni paytda qiyosiy tahlil nafaqat Yevropa davlatlari balki, Vatanimiz taraqqiyot bosqichlari davrlari tarixini va xalqimizning jahon sivilizatsiya qo'shgan hissasini anglab etishga yordam beradi.

Tadqiqotning metodi va ilmiy - nazariy asoslari. Bitiruv malakaviy ishini yozishda dialektik metodga tayandik. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning tariximizni bugungi kun nuqtai nazardan o'rganish, yaratish orqali tarixiy xotirani tiklash, milliy madaniyatni rivojlantirish, ananaviy qadriyatlar tizimini tadqiq va targ'ib etish borasidagi konseptual nazariy mulohazalari Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy - nazariy va amaliy ahamiyati.. "Numizmatika" faini o'rganishda interaktiv usullardan foydalanish ya'ni qiyosiy tahlil usulidan foydalanish, tarixiy haqiqatni oydinlashtirishga, tarixiy voqealarning sabab va maqsadlari turlicha baholangan yoki ziddiyatli qarashlarning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur ilmiy ishning nazariy xulosalari va natijalaridan oliy o'quv yurtlarida Jahon va O'zbekiston tarixi fani bo'yicha maxsus kurslar o'tishda, darslik, o'quv qo'llanmalari va dasturlar tuzishda foydalanish, ochiq darslar tashkil etish mumkinligi, BMI amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqotning manbalari. BMI yozishda o'rganilgan asarlar va matbuot materiallari natijalari asos qilib olindi. Shuningdek, mustaqillik davrida mazkur mavzuda uyushtirilgan davra suhbatlari materiallari, chop etilgan ilmiy maqolalar, davriy matbuot materiallardan ham keng foydalanildi.

Tadqiqotning tuzilishi. Bitiruv ishi kirish, asosiy qism, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I. Bob . Numizmatika tarix fanini o`rganishda yordamchi manba.

1. Antik davr tanga pullari.

Qadimshunos olimlar er kurrasidagi dastlabki savdo muomalasi ibtidoiy jamoa tuzumining tosh asridan boshlanganligini isbotlaydilar. Ularning ta`kidlashlaricha inson o`z mehnatining maxsulotlarini ayirboshlash natijasida savdo-sotiqning ilk va sodda to`rini vujudga keltirdi. Tanqis ashyolarni pul o`rnida ayirbosh qila boshladi. Bunday tovar pul muomalalari mintaqalarda turli ko`rinishda amalga oshirilgan. Masalan, Osiyo va Afrikada **kauri** nomli chig`anoqlar pul vazifasini o`tganligi ma`lum.

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti ulkan, poyonsiz yo`llarni bosib o`tdi, taraqqiyotni evolyutsion yo`li, insoniyatni sivilizatsiya sari etakladi. Antik taraqqiyotni boshlanishi san`at va madaniyatning hamma sohalariga ta`sir ko`rsatib, o`zining rivojlanish yo`lida yuqoriga etgan bo`lsa, bu davrda tarix fanining alohida bo`limi hisoblangan numizmatika sohasida ham diqqatga loyiq ishlar qilingan. Metalldan ishlangan pul tanga chaqalarning paydo bo`lishi insoniyat tarixidagi muhim voqealardan biridir. Ma`lumki, jamiyat ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishning g`oyat yuksak darajasiga erishgandagina tanga chaqalar kashf etilishi mumkin. Odamlar endi pul tariqasida chorva mollarini ishlatmay qo`ysalarda, buyumlar narxini ilgarigi odatga kirib qolgan chorva mol narxiga chaqqanlar. Metall pullar qirqib tortila boshlaganidan keyin, ularni og`irligini ko`rsatib beruvchi belgi sola boshlaganlar. Belgi solingan pulni paydo bo`lishi haqida shunday afsonalar saqlangan. Rimliklarni ko`pdan - ko`p xudolari orasida, ixtirolarni boshqaradigan xudolar ham bor ekan. Uning ikkita yuzi bo`lib, oti **Yanus** ekan. Dastlab tanga pulni o`sha Yanus ixtiro qilgan emish. Shuning uchun eski rim va italyan pullarining bir tomonida ikki yuzli Yanus surati, ikkinchi tomonida Yanus tushib kelgan kema surati zarb qilingan¹.

Tanga pullarning dastlab qaerda paydo bo`lganligini aniq aytish qiyin. Ammo tanga pulning nomi "**Moneta**" ellinlarda tug`ilgan. Qadimgi Rimliklar

¹ Кобрин Р.Б. Вспомогательные исторические дисциплины. М. 1984. стр- 93.

xudolarni hammasi er va osmon podshosi Yupiter va uning xotini Yunon Monetaga bo'ysunadi deb bilganlar. "**Moneta**"-**murabbiya** degani bo'ladi. Rimliklar ma'buda Monetani benihoya hurmat qilganlar va unga atab Rimning eng baland joyiga ibodatxona solganlar. Ular urushlarda g'olib bo'lganlaridan keyin o'z ma'budalariga atab katta qurbonliklar qilishgan, hatto pullarini Yunon Moneta ibodatxonasida zarb qilishga qaror qilganlar. Ana shundan buyon tanga pullar moneta deb ataladigan bo'ldi. Tanga klafikatsiyasi quyidagicha: **avers** – tanganing yuz tomoni, **reves** – tanganing orqa tomoni, **emitent** – tanga zarb qiladigan shaxs (hukmdor), **legenda** (afsona) – tangadagi yozuv, **nominal** – tanganing qadri, kuchi, **proba** – oltinga nisbatan massasi, **abres** – aylana cheti.

Dastlab, dunyoda tanga pullar faqat sof oltin va kumushdan zarb qilingan. Ammo bu metallar sof holida juda mo'rt bo'lganligidan, undan zarb qilingan pullar tez eyilib siyqalanib ketgan. Shuidan keyin pullarni qotishmadan zarb qiladigan bo'lganlar, Oltin yoki kumushga boshqa metallar. mas,,: *mis yoki qalay qorishtirganlar*. Har bir mamlakatning hukmdori boshqalarnikidan farq qiladigan tanga pullar zarb qilib chiqarishga uringanlar.

Numizmatika fanining asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan tanga pul xillari ana shu tariqa paydo bo'lgan. Tanga pullarni odatda betini o'rab turgan doirasi bo'ladi, bu doirada yozuv yoki surat bo'ladi. Numizmatlar yozuvni tanga pulning **Legendasi** (*tangada uchraydigan barcha yozuvlar, qisqartirilgan so'zlar, alohida harflarning atamasi*) deb ataydi. Suratlariga kelsak odatda podshohlar, xudolar surati zarb qilinadi va bu suratlar davlatning yoki podshohning muhrini aks ettiradi.

Qadimgi Gretsiyada tanga pullarga ko'proq xudolar, ma'budalar va muqaddas hayvonlarning suratlarini zarb qilganlar. Masalan, *Afina shahrining tanga pullarida ma'buda Afina surati, Olimpia tangalarida Zevs surati zarb qilingan.*

Miloddan avvalgi 45-yillar Rimda Tit Kariziy magistrliги davrida ma'buda Yunona ibodatxonasi qoshidagi taksolda o'ngini bejirim ayol boshining surati bezab turgan, ostida «**Moneta**» (Grek tilida «**bashoratchi**») deb yozilgan dinor pul zarb etildi. Aslida bu nom ma'buda sifatlaridan

biridir, keyinchalik Yunona Moneta ilohiga tanga zarb etish, doimiyga aylanadi. Ma'budaning dastlabki sifati esa o'shandan buyon metall pullar nomiga nisbat berilib, ularni moneta deb atalgan va hozirgacha shunday atalib kelinmoqda¹.

Rim dinori zarb etilishiga qadar tangalar bir necha asrli tarixiy yo'l bosib o'tishga ulgurgan edi. Juda qadim zamonlardan beri tangani afsonaviy qahramonlar va ma'budlar yaratadi, degan aqida yashab kelar edi. Qadimgi grek manbalarida tanganing kelib chiqishi haqida uchta faraz borligi qayd etiladi. Birinchi farazga binoan, tangalar ilk bor Kichik Osiyo davlati **Lidiyada** zarb qilina boshlangan, ikkinchi faraz bo'yicha, kumush tangani Argoss podshohi Fidon kashf etgan, uchinchi farazda, tanganing yaratilishi Eolidadagi Kima shahrining afsonaviy shohi Midasning xotini malika Germodek nomi bilan bog'liqligi aytiladi.

Hozirgi ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, zarb etilgan tanga miloddan avval VIII – VII asrlarda Kichik Osiyoning Ioniylar sohilidagi grek shaharlarida (bu shaharlar o'sha davrda **Lidiya** hukmdorlarining tasarrufida edi) va Egeya orolida paydo bo'lgan. Umuman birinchi tanga qaerda zarb qilinganligi to'g'risida antik olimlarning ham fikrlari turlicha. Chunonchi Gerodot va Ksenofontlarning ma'lumotiga ko'ra, birinchi oltin hamda kumush tangalar eramizdan oldingi VII asrda Kichik Osiyoning Lidiya davlatida zarb qilingan. Keyinchalik Qora dengiz bo'yidagi ko'pgina grek mamlakatlari va davlatlaridagi yirik shaharlarda tanga pullar zarb qilingan.

Dastlabki vaqtda tangalarda, rasm – muhrlarda xilma – xil geometrik shakllar, hayvonlar, qushlar, baliqlar, sher, tashbaqa, dengiz mushugi, boyo'g'li va shu kabilar tasvirlanadi. Faqat oradan ancha vaqt o'tgandan keyin tangalarda yozuvlar, miloddan avval IV asro'rtalarida hamda Aleksandr Makedonskiy davridan boshlab podshohlar va ma'budalarning tasviri paydo bo'ldi.

¹ Ртвеладзе Э.В. Древние монеты Средней Азии-Т.: Изд. литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1984. стр -7.

Lidiyada birinchi tangalar elektrdan – ya'ni oltin va kumushning tabiiy qorishmasi – «**oq oltin**»dan, keyinchalik sof kumushdan zarb etiladi.

Mashhur podshoh Krez (miloddan avvalgi 561-546 yil) – uning ismi behisob boyliklar ramziga aylangan – davridan keyin **bimetallizmga** (*tilla va kumushning birga ishlatilishi*) asoslangan tanga sistemasi tatbiq etilib, bu sistema Eronda keng tarqalgan edi.

Qadimgi tanga sistemalarida, masalan, Milet, Fokey, Egin, Yevbey sistemalarida har bir vazn standarti uchun maxsus zarb etilgan turli nominallar ishlatilardi. Ammo Yunonistondagi Egina shahrida, Xitoy va Hindistonda maxsus tangalar zarb etish ham ixtiro qilindi. Ularning ko'rinishi juda sodda bo'lib, dastlab ayrim chizgilar bilan bezatilgan, so'ngra turli jonzotlarni (***toshbaqa, ukki, dengiz mushugi, baliq va xokazolarni***) tasvirlashga o'tilgan. Bunda aks ettirilgan jonzot, uning shahar tug'rosi yoki nomi bilan hamohangligidan kelib chiqib ish tutilgan. Keyinchalik ilohlar va bazilevelar tasviri ifodalangan tangalarni "**moneta**" deb nomlay boshlaganlar¹.

Makedoniyaning gullab – yashnashi, qo'li ustun kelishi hamda Aleksandr Makedonskiyning davlati bunyod etilishi davrida tangalar nominali yagona normaga keltirila boshlandi. Bu vaqtda tanga zarb etishga asos qilib **17,44 gr tetradraxm hamda 4,36 draxmli attika sistemasi** ishlatila boshlandi. O'sha davrdan boshlab bir necha asrlar mobaynida attika sistemasi Ellada davlatlarida hamda O'rta Osiyoning janubiy hududlarida asosiy sistema bo'lib keldi.

Qadimgi davrlarda turli xil tanga va pul birliklarining nomlarini uchratish mumkin bo'lgan. Chunonchi, qadimda **Tetradrahma, dragma, gemidrahma, obol, dinor, dirham, lira** va xokazo nomli tangalar mavjud bo'lgan. Bu nomlarning kelib chiqishi ham bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Mas,: ***Yunon draxmalaridan sharqiy dirham, rim dinariylaridan dinor va boshqa shu kabi pul nomlari hosil bo'lganligi hammaga ma'lum.***

¹ Ртвеладзе Э.В. Древние монеты Средней Азии-Т.: Изд. литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1984. стр - 8.

Qadimgi tangalar ikki xil: 1) quyma. 2) zarblangan uslubda tayyorlangan, quyma tangalar maxsus shakl va tasvir o'yilgan qolip idishlarga ma'dan quyib tayyorlangan. Ikkinchisi esa temir yoki bronzadan ishlangan **muhr - shtempelda (tanganing o'ngi va tersi naqsh etilgan maxsus asbobda)** tangalar ifodasi tayyorlanib, kerakli metall quymasi ustiga zarblangan. Birinchi uslubda tanga sathidagi tasvir noaniq bo'lganligidan tezda o'chib ketishi sababli miloddan avvalgi VII-asrga kelib, zarblangan tangalar keng miqyosda qo'llaniladigan bo'ldi va shundan buyon tangalar faqat zarblangan holda muomalaga chiqarib kelinmoqda.

O'rta Osiyo ilk pul paydo bo'lgan joylar sirasiga kirmaydi: buning asosiy sababi – ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishning sustligidir. Bu yerda tanga paydo bo'lgunga qadar talay asrlar mobiynda ayirboshlik, savdoning turli – tuman, hatto qimmatbaho buyum shakllari hukmron edi. Ammo O'rta Osiyo xalqlari o'z territoriyasida miloddan avvalgi birinchi ming yillikning so'nggi uch yuz yilligida paydo bo'lgan ma'dan pul haqida tasavvurga ega bo'lmagan deyish mutlaqo noto'g'ri.

Miloddan avvalgi VI – IV asrlarda O'rta Osiyo qadimgi fors ahamoniylar davlati tarkibida bo'lgan. Bu davlatda esa miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab to IV asrning 30 – yillarigacha oltin (**darik**) hamda kumush (**sikl**) tangalar zarb etilardi. Ma'lumki, ahamoniylar qo'shinlarining asosiy qismini o'rta Osiyoliklar tashkil qilishgan: so'g'd, baqtriya, xorazm va sak askarlari fors podsholarining Gretsiyaga qilgan yurishlarida faol ishtirok etganlar. O'rta osiyolik jangchilar ahamoniylar saltanatining turli shaharlarida garnizon xizmatini ham o'tashardi. Hech shak – shubha yo'qki, o'sha davridayoq, O'rta Osiyo xalqlarining ko'pchilik qismi ma'dan pulni yaxshi bilgan, ammo bu yerdagi ijtimoiy – siyosiy taraqqiyotning ma'lum shart – sharoitlari tufayli bu pullar savdo – sotiq vositasiga aylanmay qolgan. Hozirgacha O'rta Osiyo territoriyasida miloddan avvalgi VI – IV asrlarga oid dalil qilib ko'rsatishga arzigulik tanganing biron – bir namunasi haqida xabar yo'q. O'tgan asrda Karki (Turkmaniston) shahrining atrofida

ahamoniylar davlatining oltin darigi topilgani haqidagi mujmal xabar bundan mustasno. Qadimdan bu tangalarni «**tirandoz**» deb atashardi, sunki tanganing bir tomonidan tiz cho'kkan quyi kamon otayotgan podsho yoki askarning tasviri aks ettirilgan¹.

Miloddan avvalgi IV asrning uchinchi choragida qudratli ahamoniylar saltanati Aleksandr Makedonskiy qo'shinlari zarbasidan quladi. Miloddan avvalgi 330 – 327 yillarda qadimgi zamonning eng zabardast lashkarboshisi O'rta Osiyoni zabt etish bilan band bo'ldi. Tub yerlik aholi uning o'sha paytdagi ilg'or qo'shinlariga qarshi qahramonona kurash olib bordi. Makedonskiy qo'shinlari shahar va qishloqlarni g'orat qildi. Shunga qarmay, O'rta Osiyoning janubiy rayonlari Aleksandr Makedonskiy davlati, keyin esa uning sarkardasi Selevk o'rnatgan saltanat tarkibiga qo'shilishining ijobiy tomonlari ham yo'q emas edi. Bir qancha vaqt o'tgandan keyin O'rta Osiyo Ellada davlati asoratiga tushib qoladi: ilg'or grek madaniyati sharqning eng olis nuqtalarigacha kirib boradi, Ellada ta'siridagi mamlakatlar o'rtasida mol ayirboshlash va madaniy aloqalar kuchayadi.

Aleksandr Makedonskiy jangchilari o'zlari bilan birga muomaladagi tangalarini olib kelishlari shubhasizdir, ammo ular yerlik aholi orasida urf bo'lganmikan? Fanda bu farazlarni tasdiqlovchi biron – bir ma'lumot yo'q. O'rta Osiyo territoriyasida Aleksandr davlatiga mansub tangalar ham topilmagan. Tasodif tufayli topilgan Aleksandr Makedonskiyning tetradraxmasi Oybek nomidagi O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi fondidan olingan bo'lib, Ellada tangashunosligida eng nodir nusxalaridan hisoblanadi. Uning o'ng tomonidan qiyofasi Aleksandrga o'xshab ketadigan, arslon terisi yopingan Gerakl, tanganing ters tomonidan qo'lida qush tutgan Zevsning taxtda o'tirgan qiyofasi tasvirlangan.

Aleksandr Makedonskiyning o'limidan so'ng uning saltanatida sarkardalar – diadoxlar taxt uchun shafqatsiz kurash boshlab yubordilar.

¹ Введение в специальные исторические дисциплины. МГУ. 1990. стр - 89.

Makedoniya davlatining xarobalarida bir necha yirik – yirik ellin davlatlari barpo etiladi.

O'rta Osiyoning janubiy rayonlari meloddan avvalgi 312 yili **Selevk I Nikator** tashkil etgan Selevkiylar imperiyasining bir qismiga aylanadi. Baqtriyada (Shimoliy Afg'onistondagi hozirgi Balx) zarb etilgan birinchi tangalarning paydo bo'lishi selevkiylar davlatining sharqiy viloyatlaridagi satrapi (voliysi) keyinchalik uning podshohi bo'lmish Selevkning o'g'li (Selevk va mashhur Spitamenning qizi Apama nikohidan tug'ilgan farzand) **Antiox I** nomi bilan bog'liq.

Greklar ulkan jahon imperiyasiga asos solishi natijasida O'rta Osiyo ham uning tarkibiga kiritildi. Natijada umumiy oldi-sotdi savdosida pul joriy etildi. er. av. 293-280 yillar mobaynida Baqtriya davlatining sharqiy viloyatlari noibi Salavkaning o'g'li Antiox birinchi marta pul chiqarishga asos soldi.¹

Boshida Selevk I va Antiox I larning mushtarak emissiyasida kumush tangalari, keyinchalik esa yagona hukmdor sifatida Antiox I tangalari zarb etila boshlandi. Ularning orasida g'oyat qimmatbaho tangalar: stater, tetradraxma va draxmalar bor edi. Risolada keltirilgan Antiox I draxmasining o'ng tomonida shoh, uning terisida muguzli ot tasviri tushirilgan. Bir qancha vaqt o'tganidan keyin, ya'ni miloddan avvalgi so'nggi ikki yuz yillik ichida zarb etilgan Antiox I ning tangalariga taqlidan talay va xilma – xil so'g'd tangalari paydo bo'ldi. Jumladan, tilla, oltindan qilingan pullar stater, kumush-pullar-tetradraxma, draxma, yarim draxma deb atalgan. Hatto pullarni og'irligi grek o'lchov birligi bo'yicha, ya'ni tetradraxmalar 16 gramm. draxmalar 4gr. ni tashkil etgan. Kundalik savdoda foydalanish uchun mo'ljallangan mis tangalar ham chiqarilgan. Grek-Baqtriya podsholigi pullari ko'pchilik hollarda Salavka an'analarini davom ettirgan. Tanganing yuza tomonida podshoni rasmi, orqa tomonida esa grek xudolaridan (Appolon, Artemida, Afina, Gerakl, Zevs,

¹ Ernazarova.T, Kochnev.B. Tangalar o'tmish darakchilari. T. "Fan". 1977. 7- bet.

Poseydon va boshqalar) birining rasmi ifodalangan. Ammo mahalliy ta'sir ham pul zarb qilish ishlarida sezilarli bo'lgan. Jumladan grek xudolarining ba'zi bir xususiyatlari Sharq xudolarining ba'zi jihatlariga o'xshash holda aks ettirilgan.

Garchi selevkiylar davrida tangalar O'rta Osiyoning janubiy rayonlarida iqtisodiy hayotga joriy etilmagan bo'lsa – da, har holda yerlik xalq ular bilan yaqindan tanishib oldi.

Dastlabki davrlarda tangalar O'rta Osiyoning faqat grek aholisi orasidagina yuritilgan bo'lsa kerak, chunki bu paytda tub aholi hali pul-tovar muomalasi yuritishga ulgurmagan edi, deb hisoblaydi taniqli sovet tangashunos olimi ye. V. Zeymal. Bu jarayon miloddan avvalgi III asr, ya'ni ikki mustaqil: Parfiya va Grek-Baqtriya podshohligi paydo bo'lgan davrda boshlangan deb taxmin qilish, har holda haqiqatga yaqin.

Mil.av. III asr o'rtalarida Salavkiylar hokimligini sharqiy hududlarida Grek-Baqtriya podshohligi yuzaga keldi. Grek-Baqtriya tangalari yuqori badiiy did bilan ishlangan bo'lib, har bir tangada doira ichiga podshohning tasviri uning ichki mohiyatini ochib beradigan tarzda zargarona san'at bilan bajarilgan. Grek-Baqtriya tangalari mamlakatimiani janubiy sarhadlari Surxondaryo viloyatida ko'p uchraydi. Buxoro vohasida Grek-Baqtriyani yirik kumush tangalarining 60 nusxadan iborat butun boshli xazinasi topilgan. By hukmdorlar ko'proq asosan kumushdan, istisno hollarda hatto mis, nikel' qotishmasidan zarb eganlar. Grek-Baqtriya tangalarining mashhurliги shunga olib keldiki. O'rta Osiyoning ko'pgina hududlarida janubiy Amularyo bo'ylarida. Buxoro va Xorazm vohalarida o'sha tangalarga o'xshatib tangalar chiqarildi.

Grek-Baqtriya tangalari **medal (medal tanga - bironta ulug' zot, sharaflı sana, qimmatçilik yoki qahat, ochlik yillari munosabati bilan zarb etilgan tanga. Medal'er – medal' yoki tanga quyish yoki zarb etish)** yasash san'atining go'zal namunalari hisoblanadi. Kichkina yumaloq doiraga tushirilgan podsholarning rasmi bizning davrimizgacha etib kelgan o'sha hukmdorlarning yakkayu-yagona asl rasmi hisoblanadi. Bu rasmlar tarixiy shaxslarning qo'lyozma manbalarida ifoda etilmagan kiyofalari va xis-hayajonlarini aks ettiradi.

O'rta Osiyoda zarb etilgan Salavka tangalari juda oz miqdorda topilgan bo'lsa, Grek-Baqtriya tangalari esa aksincha ana shu umumiy miqdorning ko'p qismini tashkil etadi. Grek-Baqtriya kumush tangalari xazinası (100 donaga yaqin) Qashqadaryo vodiysining Kitob shahri atrofıdan topilan.

Mil.av. III asrda O'rta Osiyoda pul muomalasi boshlandi. Shu asrning oxirlaridan O'rta Osiyoning o'z tangalari paydo bo'ldi. Tangalarning old qismida chambarga olingan podshoh byusti, orqa tomonida ot boshi va hukmdor nomi bitilgan tangalar asosan Samarqandda zarb qilingan. Mil.av. III asr O'rtalarida Salavkiylar hukmronligining sharqiy hududlarida **Grek-Baqtriya podsholigi** yuzaga keladi. Grek-Baqtriya tangalari yuqori doira ichida podshohning tasviri uning ichki mohiyatini ochib beradigan tarzda zargarona san'at bilan bajarillgan. Bu davlat tangalari Surxondaryo viloyatida ko'p uchraydi. Buxoro vohasida yirik kumush tangalari 50 nusxadan iborat xazina topilgan.

Grek-Baqtriya hukmdorlari asosan kumushdan ba'zan oltından va misdan ayrim hollarda mis nikel' qotishmasidan zarb qilingan. Bu tangalarning mashhurligi shunga olib keldiki, O'rta Osiyoning ko'pgina janubiy Amularyo bo'yi viloyatlaridagi hududlarda, Buxoro va Xorazm vohalarida shu tangalarga o'xshatib tangalar chiqarildi.Yana bir mana shunday qadimgi davlatlardan hisoblangan Parfiya haqida gapiradigan bo'lsak, mintaqamizning Atrek va Gurgon daryolari yuqori xavzasida joylashgan(*Janubiy Turkmaniston ,Shimoliy-sharqiy Eronning bir qismi*) tarixiy makonlardan biri qadimda shunday nom bilan yuritilgan.

Mil.av. VI asrning ikkinchi yarmida **Parfiya** ahmoniylar qo'l ostiga tushadi va saltanatning 16 okrug tarkibiga kiritilgan. Parfiya tangalarida tasvir etilgan shohlarning siymolarini har bir shoh surati uchun individual bo'lgan **tiara** (*qadimgi Sharq podsholari hamda Rim papalarining bosh kiyimi*) shakli orqali farqlasa bo'ladi. Parfiya shohlarini boshqalardan farqlaydigan belgi bu «ossuariy» tipi deb nom olgan qalin, uzun, to'liqsimon turuvchi soqolidir. Mil. av. IV asrning 30-yillari so'ngida yunon Aleksandrga tobe qilinadi. Shu asrning so'nggi o'n yilliklarida Salavkiylar ta'siriga tushib doladi. Bu holat mil. av.III asr

O'rtalariga qadar davom etadi. Taxminan shu davrda parfiyaliklar salavkiylar ta'siridan ozod bo'ladi. Bu haqda yunon va arman manbalarini guvohlik berishicha, asli kelib chiqishi saklarning day qabilasidan bo'lmish Tajan daryosi buylarida yashovchi Parna urug'i sardori Arshak salavkiylarning Parfiyadagi noibini ag'darib hokimiyatni o'z qo'liga oladi va arshakiylar sulolasiga asos soladi. Salavkiylarga zarba bergandan keyin, Rim bilan to'qnash keladi. mil. av.55-38 yillarda harbiy yurishlar uyushtiradi. Mil. av. 53 yili Jazira tomonidan shimolidagi Karr shahri yaqinida ikki tomon o'rtasida to'qnashuv sodir bo'ladi. Xorazmliklarning harbiy taktikasini qo'llagan arshakiylar rimliklarga zarba bergan. Shundan keyin Suriya, Kichik Osiyo hamda Falastinni ham bo'ysundirgan va poytaxtni Ktesifon shahriga ko'chiradi. Shuning uchun Marg'iyona uning tarkibidan chiqadi.¹

Arshakiylar davri ijtimoiy siyosiy hayotiga e'tibor bersak, oliy hukmdor arshakiylar xonadonidan bo'lishi shart hisoblangan. Davlat boshqaruvida ikkita kengash: zodagonlar va kohinlardan iborat bo'lgan. Yangi hukmdor shu kengash ishtirokida saylangan marhum vasiyati inobatga olingan. Vafot etgan hukmdorning o'g'li, ukasi taxtga taxtga chiqmasdan sulolani biron bir namoyandasi egallagan. Kengash hatto oliy hukmdorni chetlatishga ham qodir hisoblangan. Shu bilan birga mulklari, mavqei bir xil bo'lmaganini ta'kidlash joiz. Seyiston, Tirkaniya yarim mustaqil mulk sifatida o'z pullarini zarb etganlar. Har bir satrapiyada turli xo'jaliklar mavjud bo'lib, davlat xazinasiga soliq to'lab turgan. Ishlanadigan erlar bir necha darajaga bo'linib, ulardan olinadigan soliqlar ham turlicha bo'lgan, asosan maxsulot sifatida qisman pul bilan qabul qilingan.

O'zbekiston territoriyasida XIX asr oxiri XX asr boshlarida kolleksionerlardan sotib olingan Ahmoniylarning qator **dirik-** (*oltin tangalari*) va **sikllarini-**(*kumush tangalari*) sotib olinishi Ahmoniylar davriga mansub tilla va kumush pullarni So'g'd va Baqtriyaga kirib kelganligidan dalolat beradi.

¹ Ртвеладзе Э.В. Древние монеты Средней Азии-Т.: Изд. литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1984. стр -12.

Gerodotni yozib qoldirgan ma'lumotlarga ko'ra So'g'd, Xorazm, Baqtriya Ahmoniylarga **talant - ya'ni pul** birligida o'lpon to'la-ganlar. Metalldan ishlangan pul tanga chaqalarning paydo bo'lishi insoniyat tarixidagi muhim voqealardan biridir. Ma'lumki, jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishkning yuksak darajaga erishgandagina tanga chaqalar kashf etilishi mumkin. Dastlabki tanga chaqalar miloddan avvalgi VII asrda Kichik Osiyoda paydo bo'ldi.

Tanga zarb etish O'rta dengiz bo'yi mamlakatlariga tez tarqaldi. Miloddan avvalgi VI asrda esa Eron va O'rta Osiyo kattagina qismini o'z ichiga olgan Ahmoniylar imperiyasi tarkibiga kirib bordi. Yunon shaharlari tanga zarb etish tarixida muayyan o'rin-tutadi. O'rta Osiyo va Yaqin Sharq noyob qazilma boyliklarini qo'lga kiritgach, Iskandar Zulqarnaynning odamlari o'z yurtlarida tanga zarb ettirdilar va ularni butun O'rta dengiz mamlakatlariga muomalaga kiritganlar.

Ahmoyiylar va Makedonokiy tangalarining O'rta Osiyoga faqat noyob nusxalari etib kelgan edi. Salavkaning o'g'li Antiox davridan boshlab O'rta Osiyoga kumush tangalargina emas, balki mis chaqalarning ham keng ko'lamda kirib kelishi kuzatiladi. Miloddan avvalgi III asrda O'rta Osiyoda pul muomalasi boshlanadi¹.

Miloddan avvalgi III asrning oxirlarida O'rta Osiyoning o'z tangalari paydo bo'ldi. Ular Antioxning kumush tangalariga o'xshatib zarb etiladi. Tanganing old tomonidan chambarga olingan podshox byusti, orqa tomonida yuganlangan shoxli ot boshi va hukmdor nomi bitilgan ("**Podshoh Antiox**") degan yozuv ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari **monogramma** (*grek tilida mono-bir; grammaharf yozuv. Bu erda: tangada monogramma-tangani zarb qilgan usta hamda hukmdor ismi shariflarining jimjimador bosh harfi*) ham bor.²

¹ Ртвеладзе Э.В. Древние монеты Средней Азии-Т.: Изд. литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1984. стр -12.

² Феодоров Г. А - Давыдов. Монеты рассказывают. М. «Педагогика». 1990. стр-29

Antiox asl tangalaridan uning farqi shu ediki, O'rta Osiyo tangalaridagi tasvirlarning sifati pastroq edi. Yozuvlar buzib berilgan. Ular Samarqandda zarb etilgan.

Xorazmdan topilgan tangalarda lotin alfavitidagi " S " harfiga o'xshash *siyovushlar tamg'asining* borligi, bu sulola siyovushlar avlodidan bo'lgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Mana shunday taxlitdagi kushon tangalari tarqaladi, mahalliy har qanday tangalarni zarb qilish deyarli to'xtatiladi. Eramizning boshlarida tashkil topgan kushonlar podsholigi yangi era boshlarida dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan imperiyaga aylanishi natijasida kushon tangalarida ham grek alifbosidan foydalanish davom etdi. Keyinchalik grek alifbosida Baqtriya tilidagi so'zlar yozila boshlandi. Grek xudolarining tasviri asta-sekin mahalliy, shu jumladan zoroastriya xudolarining tasviri bilan almashtirildi. Mil.av.III-II asrlarda O'zbekistonning shimoliy hududlari ko'chmanchi qangyuy birlashmasiga tobe edi. O'troq viloyatlar esa o'z hukmdorlariga ega bo'lib, yarim mustaqil edilar. Xorazmga kushon tangalari kirib kelsa ham, ular- podsho tasvirini va otliq askarni aks ettirgan o'z tangalarini zarb qilishda davom etardi¹.

Anaxita (*tabiatning hosildorlik va jonlantiruvchi xuosi*), **Farro** (*boylik va podsho hukumati ramzi*), **Mitra** (*quyosh ilohiyati*) shular jumlasidandir. Agar O'rta Osiyoda kushonlar va hatto ilk kushonlar davrida ham kumush tanga zarb qilingan bo'lsa, kushon podshosi Vima Kadfiz islohot o'tkazib, oltin tanga zarb qilishga asos soddi. Shu davrda ko'plab oltin dinorlar va boshqa tangalar chiqarildi. Mazkur tangalar xalqaro savdoda muhim o'rin egallagan rim oltinlariga yaqin turar edi. Shu narsa diqqatga sazovorki, kushonlar davrida turli qiymatga ega bo'lgan mis tangalar ham ko'plab zarb qilingan. Faqat Surxondaryo viloyatining kichik qishloqlarida kushonlarning yuzlab mis tangalari topilganligi fikrimizning dalilidir. O'rta Osiyoda bunday hol ilgari bo'lmagan. By kundalik mayda savdoning xalq orasida qanchalik rivojlanganligidan dalolat beradi².

¹ Ayupova.F. Qadimiy tangalar. «Moziydan sado» 1-2 sonlar. 2000y.

² Aminjonova I E. Qadimiy yodgorliklar qissasi. - T., 1968. 23 - bet.

Kushon tangalarini aksariyati oltindan zarb qilingan. Bundan tashqari kushonlar davrida ko'plab mis chaqalar ham chiqarilgan. Mas.,: *Surxondaryo hududida ular faqat ko'hxna shaharlarning xarobalaridagina emas ,balki kichikrok qishloq kasabalarida ham uchraydi.* Milodning I-III asrlarida O'zbekistonning janubi, Afg'oniston hamda Shimoliy-G'arbiy Hindistonni o'z ichiga olgan jahonshumul mamlakat bo'lmish Kushon imperiyasi tarkibiga kirgan. Zarb etilgan ilk kushon tangalarida grek-baqtriya ta'siri yaqqol sezilgan, biroq keyinroq kushonning o'zita xos alohida tangalari paydo bo'ldi. Bu davrdagi tangalarda hatto Budda tasvirini ham ko'rish mumkin. Kushon tangalari Kama bo'ylarida ham uchraydi.

Kushon davlati qadimgi dunyoning eng zabardast davlatlaridan biri edi. Bu davlat eramizdan avvalgi I asr o'rtalaridan to eramizni III asr o'rtalariga qadar, ya'ni 200 yilcha yashadi. Uning ravnaq topgan davri Kushon podshohi Kanishka davriga to'g'ri keladi. Kanishka eramizdan avvalgi II asrning birinchi yarimida, ya'ni Kushon davlati tarkibiga Hindiston va Afg'onistonning talay hududlari, O'rta Osiyoning janub viloyatlari kirgan davrda hukmdorlik qilgan.

Kushonda tanga zarb qilinishi ba'zi bir tadqiqotchilar ismini «Grey», boshqalari esa «Sanab» deb o'qishgan hukmdorning tangalaridan boshlanadi. Bu tangalar ikki xil bo'lib, biri tetradraxma, ikkinchisi obol (bu yerda: chaqa) edi.

Tetradraxmaning o'ng tomonida sochlari hafsala bilan taralgan, peshonasiga tasma bog'lagan, yuzlarida g'ayrat-shijoat barq urib turgan erkak kishining beligacha tushgan surati berilgan. Tanganing ters tomoni kishi diqqatini o'ziga tortadi: o'rtada ot minga shoh, uning orqasida gulchambar tutgan Nika (Zafar) ma'budasi parvoz qilyapti. Shu yerning o'zida «Kumon hukmdori Geray Sanabniki» degan to'rt so'zdan iborat grek yozuvi bor. Bu sirli tangalarning o'rgana boshlanganiga ham yuz yildan oshdi: so'nggi ikki o'n yillik mobaynida tangashunoslik ilmi qo'lga kiritgan yangi ma'lumotlar hamda Xalchayonda topilgan «Gerey» chalarning haykallari Kushon hokimi hukmdorlik qilgan davrga oid kashfiyotlar qilishga imkoniyat berdi. Xususan,

taniqli eronshunos V.L. Livshitsning taxminiga qaraganda «Geray» so'zi ism emas, sifat (epitet) bo'lib, turk tilida «dongdor (qahramon) zot», «Sanab» so'zi esa Sanobar so'zining qisqartirilgan shakli bo'lib, «balogardon», «yovqur» ma'nosini anglatadi. Ammo bu tangalarga oid ko'p narsalar hali noaniqligicha qolgan. Kushon mis chaqalari bundan ham hayratomuz va sirliroqdir. Ularda hukmdorning ismi yo'q, faqat mansabi va laqabini anglatuvchi «Sohlar shohi (shahanshoh) Buyuk xaloskor» degan grek yozuvigina mavjud. Ilmda «Noma'lum shoh» yoki «Soter Megas»ning tangalari deb nom olgan bu chaqalar O'zbekiston va Tojikiston janubida olib borilgan arxeologik qazilmalarda juda ko'plab uchraydi.¹ Bu tangalar qaysi Kushon shohi tomonidan zarb etilgani haqida tinimsiz munozaralar haligacha davom etmoqda. M. Ye. Mason fikricha, ularni Kujula Kadfiz zamonida zarb etishgan, boshqa tadqiqotchilar fikricha esa, tangalarni Kadfiz Vima chiqargan. «Soter Megas» tangalarining o'ng tomonida qo'lida kalta va yengil nayza – drotik ushlagan ideal shoh siymosi aks ettirilgan. Darvoqe, ba'zi bir tadqiqotchilar bu shoh siymosi emas, balki ma'bud Mitra deb taxmin qilishadi. Tanganing ters tomoni o'rtasida uzatilgan qo'lida jang boltasi – tabar-zagnul tutgan otliq shoh tasviri o'yilgan.

Kushon shohi Kadfiz II zamonida pul islohoti o'tkazilib, yangi tanga sistemasi asosiy stateri 8,03g. Keladigan turli-tuman sifatdagi tillardan zarb etishga asoslangan bo'lib, ikki xil tanga joriy etilgandi: biri 16,07 g, ikkinchisi esa 2,01 g. Shuning bilan bir qatorda diametri 23-25 mm, vazni 16-17 g. keladigan mis tangalar ham muomalaga chiqarilgandi. Tangalarning o'ng tomonida beriladigan suratning doimiy turi ham ishlab chiqildi. Bu suratda yuzi yon tomonidan aks ettirilgan shoh mehrob oldida tik turganicha qandaydir diniy ibodat ado etmoqda. Bu tipdagi kohin-shoh tasviri boshqa

¹ Лившиц В.А. «Памятники древней письменности». -Т.: 1985. стр – 42.

barcha Kushon podsholigining shohlari, shu jumladan, Kanishka, Vasudeva, Kanishka III tangalarida (Xuvishka tangalari bundan mustasno) mavjud ¹.

Binobarin, hatto qishloqlar ham o'sha davrlarda tovar pul munosabatlariga tortilgan. BU davrda Amularyo viloyatlari iqtisodiy taraqqiyotining yuqori yuksak darajaga etdi. Bu borada mazkur viloyatlar O'rta Osiyo miqyosida etakchilik qilganligi ehtimoldan xoli emas. Grek-Baqtriya tartibiga taqlid qilgan holda o'z tangalarini zarb etishda davom etdi. Lekin tez orada mazkur tangalardagi grek yozuvi sug'd yozuvi bilan almashtirildi. Eramizning boshlarida bir tomonida podsho tasviri, ikkinchi tomonida yoychining rasmi aks ettirilgan So'g'd kumush tangalari paydo bo'la boshladi. Ularning vazni ancha engil bo'lib, og'irligi 0,3 grammni tashkil etardi.²

Eramizning birinchi asrida **Chochda** (*Toshkent viloyati territoriyasida*) ham tangalar zarb qilingan. Bu tangalarda toj kiygan podsho, ikkinchi tomonida sug'd yozuvi bo'lgan o'ziga xos tamg'a tasvirlangan edi³. Tanga pullar keng muomalada bo'lgan. Hozirda ham bu hududlarda ko'plab shu tipda zarb etilgan tangalar topilmoqda.

Bu davr taraqqiyotida **Farg'ona** vodiysi iqtisodiy rivojlanish girdobiga tortiladi. Vodiya Xitoy tangalari tez-tez uchraydi, ayrim viloyatlarida esa Rim tangalari ko'zga tashlanadi (*O'ratepada shunday tangalar xazinasi topilgan*). Bularning bari xalqaro savdoning keng miqyosda olib borilganligidan, unga O'zbekistonning ko'pgina viloyatlari tortilganligidan dalolat beradi. Bu esa Farg'ona viloyatining iqtisodiyoti jadal rivojlanganligidan dalolat beradi. O'zbekiston territoriyasida mahalliy tangalar bilan bir qatorda chet ellardan keltirilgan tangalar ham uchraydiki, bu O'zbekiston viloyatlarining xalqaro savdo bilan keng shug'ullanganligini ko'rsatadi.

Jamiyat iqtisodiy va siyosiy rivojlanishining ilgarilanma harakati yer yuzi ayrim mintaqalarida taraqqiyotni yuqori darajaga erishuviga zamin yaratdi.

¹ Гусарова.Т.П. Введение в специальные исторические дисциплины. -М. 1990. стр-26.

² Ernazarova.T, Kochnev.B. Tangalar o'tmish darakchilari. T. "Fan" . 1977. 9 - bet

³ Pidayev Sh. Tangalar davr ko'zgusi. T. 1984. 17 – bet.

Dastlabki tanga chaqalarning paydo bo'lishi mil. av. VII asrda Kichik Osiyoda paydo bo'ldi. Tangalarni zarb etish O'rta dengiz bo'yi mamlakatlarida tez tarqaldi. Pulni paydo bo'lishi bilan savdo-sotiq rivojlanib uzoq va yaqin mamlakatlar O'rtasida karvonlar muttasil qatnay boshlagan. Shu tariqa pul taraqqiyot uchun xizmat qila boshlagan.

Yirik saltanatlar qaror topishi bilan har bir mamlakatda ko'proq boylik orttirish ishtiyoqi paydo bo'ldi. Savdo-sotiq ishlarini rivojlanishi karvonlar qatnovi, urush qilmay turib boyliklarni qo'lga kiritish mumkinligini ko'rsatdi. Natijada o'zga yurtidan kelgan savdogarlardan soliq olish odat tusiga kirdi.

Yunon shaharlari tanga zarb qilish tarixida muayyan o'rin tutadi. Mil.av. III asrdan boshlab bronza o'rniga oltin tangalar zarb qilina boshlagan va uzoq yillar muomalada bo'lgan. Mil.av. VI asrda Eron va O'rta Osiyoning katta qismi Ahmoniyalar imperiyasi tarkibiga kirgan. Shu davrda Aleksandr Makedonskiy Ahmoniyalar imperiyasini barbod qilgan. Uning vafotidan so'ng sharqiy erlar Salavkiylarga o'tgan. Axmoniyalar va makedonskiy tangalari O'rta Osiyo hududlariga kirib kelgan, biroq bu tangalarning ayrim nusxalari edi. Salavkaning o'g'li Antiox davrida kumush tangalardan tashqari mischaqalarni qo'llanilishi kuzatiladi.

Eramizdan oldingi II asrda **Xorazmda** ham tanga zarb qila boshlanadi. Dastlabki Xorazm tangalari Yevkratid tetradraxmalariga taqlidan zarb etilgan yirik kumush tangalar bo'lib, asil nusxalardan farqli o'laroq, yozuvlari xiralashgan, ters tomonida o'ziga xos belgi – tamg'a borligi bilan ajralib turadi¹. Keyinchalik o'ng tomonidan yevkratid tasviri mahalliy hukmdor surati bilan o'zgartiriladi va xiralashgan grek yozuvlari bilan bir qatorda podshoning ismi va unvoni haqida ma'lumot beruvchi Xorazm tilidagi yozuvlar, tanganing ters tomonidan esa suvoriyning tasviri paydo bo'ladi. Ba'zi bir tadqiqotchilar Beruniy ma'lumotlariga asoslanib, tangada tasvirlangan siymo xorazmshohlar sulolasining asoschisi suvoriy tangri Siyovush desa,

¹ Ишанхонов.С. Х. Нумизматическая коллекция, (материалы по истории Узбекистана) -Т. 1963. стр – 32.

boshqalar bu tasvirda podsho-tangri berilgan, deydi. So'ng suvoriy-tangri tasviri bilan bir qatorda yetti asr mobaynida, ya'ni Xorazm tangasi zarb qilinishi tugagunga (eramizning VII asri) qadar bu joylarda tarqalgan barcha tangalarda zarb etib kelingan, faqat tasvirning shakl-shamoyili o'zgarib turgan xolos. Bundan tashqari mahalliy tanga nusxalari ham bo'lgan. By borada "**Xorazm chavandozi**" tasviri milodning birinchi asridan sakkizinchi asrigacha bo'lgan tangalardan joy olgan.. Pul tizimini joriy qilinishi davlatchilikni rivojlanganligidan dalolat beradi.

O'rta Osiyo tangashunosligida uchragan bu ajoyib voqea bir suloladan kelib chiqqan xorazmshohlarning izdoshligi, qadimiy an'analarga sodiqligidan dalolat berib turadi. Bu Xorazm podsholari Bravik hamda Savushfanlarning kumush tangalaridir. Ular bundan oldinroq zarb etilgan tangalardan shakl jihatida bilan, qalinligi bilan, shoh tasviri va yozuvlarning mazmuni, birmuncha zamonaviy zarb qilinish usuli bilan ajralib turadi. Savushfan tangalarining o'ng tomonidan chetga qarab turgan, peshonasida yarim oy, o'ziga yarashqli toj kiygan, soqoli olingan shohning o'ta ta'sirchan tasviri berilgan. Shohning bo'ynida ikki qator marjon, boshi uzra tillaqosh tasmlari hilpirab turibdi¹.

Tangada shoh Savushfan nomi zikr etilgan so'g'd yozuvi bo'lib, uning tarjimasi: «Siyovushdek dongdor» - demakdir. Tanganing ters tomonida xorazm suvoriylarining an'anaviy tasviri hamda «Siyovush podsho hazratlari» degan Xorazm tanga zarb qilish uslubiga xos yozuv bor. Xorazmshohlar tomonidan chiqarilgan so'nggi tangalarda arab yozuvlari paydo bo'lib, bu o'z o'rnida Xorazmda arab xalifalarining ta'siri kuchayganligidan darak beradi.

Xorazmda shoh va suvoriy tasviri tushirilgan an'anaviy tangalarning zarb etilishi asrimizning VII asri o'rtalarida tugallangan bo'lsa kerak. Umuman, O'rta Osiyo hududida mahalliy tangalar bilan bir qatorda chet ellardan keltirilgan tangalar ham uchraydiki, bu O'rta Osiyo hududlarining o'z davrida xalqaro savdo bilan keng shug'ullanganini ko'rsatadi.

¹ Aminjonova I E. Qadimiy yodgorliklar qissasi. - T., 1968. 26 - bet.

2. O'rta asrlar Yevropa davlatlari numizmatikasi.

Pul – tovar qiymatini, muomila vositasini, jamg'arish, to'lov va jahon pullari vazifasini bajaradi.

Tarix sahnasida yuzaga kelgan har qanday davlat pul muomilasiz o'z davlatini boshqara olmagan, albatta. To'g'ri dastlab tovar o'rniga tovar almashtirilgan lekin keyinchalik tanga pullar ishlatilgan. Chunki jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi savdoni o'sishi, pulga bo'lgan zaruriyatni keltirib chiqaradi. Faqat davlat boshliqlarigina tanga chiqarish huquqiga ega edi. Yevropa davlatlarida tangalarning paydo bo'lishining o'ziga xos tarixi bor.

Rim imperiyasi qulaganidan keyin u bosib olgan Evropa hududlarida birinchi kunlardan pul mumomalasi tushkunlikka yuz tutadi. Mazkur hududlarda faqat Rim kumush tangalari savdoni ta'minlab turgan. Dastlab vestgotlar, ostgotlar so'ngra burgundlar va langobardlar shu pullar bilan qanoatlangan bo'lsalar, keyinchalik o'z tanga pullarini chiqara boshlaganlar. Chunonchi, Italiyada Teodorlar sulolasi davrida tanganing old tomonida Rim imperatorini rasmi tushirilgan bo'lsa, orqa tomonida qirol o'zini monogammasini tasvirlagan. Tanga qo'pol bo'lib, xunuk manzara kashf etgan. Albatta qirollar o'zini xristian dinida deb bilgan. Shu sababli keyingi Merovinglar sulolasi davrida tangada farishtalar rasmi ham joy olgan. Xlodvig davrida xristian dini keng tarqalgan. Bu esa tangalarida ham o'z aksini topgan. Keyingi tangalarda Iso payg'mbar tasvirini ko'ramiz. Tangalar sof kumush yoki oltin, ba'zida mis tangalardan ko'plab zarb etilgan.¹

Olim numizmatlarning fikricha, Fransiyada Merovinglar sulolasi davrida oltin, Karolinglar davrida esa faqat kumush tangalar zarb etilgan. Buning sababini Merovinglar davrida lo'plab Rim kumush tangalarining saqlanib qolganligida deb izohlashadi. Buyuk Karl zamonida kumush tangalar zarb qilinib, pul islohoti mamlakatni birlashtirishni nazarda tutgan².

¹ Федоров Г. А - Давыдов. Монеты рассказывают. М. «Педагогика». 1990. стр-43,

² Введение в специальные исторические дисциплины. МГУ. 1990. стр - 90.

Feodalizm munosabatlarining rivojlanishi pul muomalasini ham markazlashtirilishiga va uni himoya qilishga olib keldi. Karl Lisiy 864 yilda edikt (farmon) chiqarib tanga zarb qilish: Ruan, Reyms, Sane, Parij, Orlean, Shalon, Lilla, Narbon shaharlarida qirol saroyida zarb qilinishi ta'minlangan. Agar masterlar, ya'ni quyuvchilar bu ishda xatoga yo'l qo'ysalar uni "qaynagan metal" bilan siylaganlar. Fransiya ana shunday siyosat orgali pul sohasida tartib o'rnatgan.

Lekin Yevropaning o'rta asrlar davrida hamma vaqt bu tartib saqlanib qolmagan. Feodal tarqoqlik davrida har bir mulk egasi ya'ni gersog o'z qasrida turib tanga zarb qilgan. Ko'plab tangalarning zarb etilishi esa uning qadrini tushirib yuborgan, chunki iqtisodning rivojlanishi sust borgan. Bu jarayon uzoq davom etgan. Ayniqsa, qalbaki tanga yasovchilar soni ortib borgan Tarixda hujjatlarning ma'lumot berishicha Filip IV Chiroyli ham shunday toifasiga kirgan. Ya'ni tangada kumushning qadri past bo'lgan. Masalan, 1280 yilda Klyonda pfening tangasida kumushning mavjudligi 1,315 g. bo'lsa, XIV asrda bu 0,075 g ni tashkil etgan. Yana eng qadrlangan grosh qalinligi jihatidan boshqa tangalarga nisbatan ustun bo'lsa, u ham keyinchalik kichkina hajmga ega bo'lib qolgan.¹

IX – XI asrlarda feodalizm Yevropa mamlakatlarining ko'pchiligida qaror topdi. Savdo munosabatlar ham jonlandi. Kon qazish ishlari ham tezlashdi. VIII asrda Bogem, Prishbramda kon qazish ishlari boshlanadi. Chexiyada Yiglava konida ayniqsa kumush qazish keng yo'lga qo'yilgan. Umumevropa koni Germaniya konlari sanalgan. Eng boy kumush koni, Germaniyaning Saksoniya viloyatidagi Gorsa konida qazib olingan. Angliyada: Qirol Edgar (957 – 975), Vilgelm I bosqinchi (1066 – 1087), Genrix II (1154 – 1189) davrida tanganing og'irligi turli davrda turlicha bo'lgan. O'sha davrda kumush tanganing og'irligi turli davrda turlicha bo'lgan. Ko'pincha kumush tanganing yuzida qirol portreti yoki uning toji, ikkinchi tomondan uning buti

¹ Введение в специальные исторические дисциплины. МГУ. 1990. стр - 96.

(krest) rasmi tushirilgan. Og'irligi 1,5 gramm yoki 1,6 gramni tashkil etgan. Lekin tangananing aylana hajmi uchun yagona hajmli standart bo'lmagan.

XII asrga kelib, Fransiyada Gugo Kameta (987 – 996) dinori 1,2 gramm bo'lgan. Shu davrdan boshlab endilikda tangananing aylanasi (doirasi)ga e'tibor beriladigan bo'ladi. Tangananing aylanasi 45 – 51 mm. bo'lgan. Italiya davlatida o'sha paytda **grosso** deb nomlangan kumush tanga zarb etilgan. Grosso – 1,4 grammga teng bo'lgan.

Florensiya shahri boshqa mamlakatlar bilan savdo aloqalarini keng yo'lga qo'ygan. Bu davrda fan va madaniyatning rivojlanishida bu shaharning alohida o'rni bor edi. Pulga ehtiyoj oltin tangalari zarb qilinishiga olib keladi. Shu davrdan boshlab, yani 1285 yili oltin tanga «**dukat**» deb atalmish, tanga zarb qilish yo'lga qo'yilgan. Italiya oltin tanga «dukat»i – 3,53 grammga teng bo'lgan. DUKAT tangani yuziga Iso payg'ambarning portreti (rasmi) tangananing orqa qismida DUKAT nomi yozilgan. Keyingi tangalarda gerbli qalqon yoki but (krest) chizilgan tangalar zarb qilinib, ularning og'irligi 4 – 7 gramchaga borgan.

Bundan Germaniya davlati ham o'rganib, 9387 probali **grosh**, og'irligi 3,9 gr. oltin tanga zarb qilingan. XIV asr boshlarida German groshi venger va chex dukatlarini quvib o'tgan. Reyn **guldeni** 1400 yilda Yevropada eng xaridorgir oltin tanga sifatida muhim rol o'ynagan.¹

1252 yilda Genuya va Florensiyada keyin Italiyaning boshqa shaharlarida oltin tangalar zarb qilingan. Oltin tangalar **florina** deb atalgan. 1285 yilda Venetsiyada **dukat** oltin tangasi zarb qilingan. 1257 yilda Angliyada ham oltin tanga zarb qilingan. Bu ayniqsa, qirol Eduard III (1327-1377) davrida takomillashib borgan. Florensiyada har yili 350-400 ming floren oltin tangasi zarb etilgan. Lekin kumush tanga zarb qilish ancha kamaygan. 1318 yilda Papaning soliq yig'uvchilari o'z vaqtida soliqni yig'ib ololmaganlar. Sababi aholida pul kamayib ketgan. Odamlarning savdo-sotiq qilishiga pulning yo'qligi sabab bo'lgan.

¹ Введение в специальные исторические дисциплины. МГУ. 1990. стр - 91.

1266 yilda fransuz qiroli Luyudovik IX tomonidan oltin tanga zarb qilish yo'lga qo'yiladi. Fransiyada oltin tanga ko'pincha **ekyu** deb atalgan. Ayrim oltin tangalar (**nobl**) deb atalgan. Ularning og'irligi 9 gr. bo'lgan. Qirol Filip IV Chiroyli (1285-1314) davrida tamplierlar ordeni tor-mor etilgach oltin ekyuni qadri yanada oshadi. Hatto bu pul birligining xalqaro savdoda ham bozori chaqqon bo'lgan.

1325 yilda Vengriya va Chexiya o'zini mustaqil oltin tangalarini chiqara boshlaydilar. Chexiyada venger oltin tangasi Karl Robert (1308-1342) anjuy sulolasi davrida zarb etildi. Shaharlarni iqtisodiy jihatdan rivojlanishi, tovar – pul munosabatlarning rivojlanishi ko'plab tanga – pullarni xarb etishni talab etgan.¹

Germaniya esa 1340-1350 yillarda floren oltin tangasiga o'xshash reyn tangasini zarb qiladi. Tanga pullar Trir, Klion, Mains, Arxiyepiskoplari, Shpeyer, Reyn yepiskoplari va Yulixa, Klevda zarb qilish yo'lga qo'yilgan. Nemis guldenlariga bir tomondan Iso payg'ambarning rasmi, ikkinchi tomonda esa to'rtta kurfyurstlarning tasviri tushirilgan. Lekin Reyn guldeni o'zining qiymatini XIV asrning oxirigacha saqlab qololmadi. 2,5 gr o'rniga 1 gr.ga kamayib borgan.

XIV asr boshida oltin tanga zarb qilish yevropaning barcha viloyatlarida qaror topgan. Florin va Dukatlar (3,5 gr) Yevropaning boshqa shaharlarida ham zarb etilgan. Fransiyada oltin ekyu XIII asrda 4 grni tashkil qilgan bo'lsa, 1337 yilga kelib uning og'irligi 4,5 gr ga etadi. XIII asr oxirida **massdor** (7,05 gr), **anjdor** (1341 yilda 7,42 gr) og'irlikga ega bo'lgan. Angliyada 1344 yilda birinchi marta **nobl** nomli oltin tanga zarb etilgan bo'lib, uning og'irligi 8,86 gr. keyinchalik, 7,76 gr.ni tashkil qilgan.²

O'rta asrlar davrida shaharlarning rivojlanishi ko'zga tashlanadi. Hunarmandchilik tovarlarni sotish va sotib olish ehtiyoji tanga pullarga bo'lgan talabni oshiradi. Ayniqsa, chet el davlatlari bilan savdo munosabatlari

¹ Русская нумизматика XI-XX веков. Изд. «Аврора». Л. 1979. стр - 8-9.

² Воронов Ю. П. Страницы истории денег. Новосибирск. «Наука». 1986. стр-46.

tovar – pul muomalasini yanada rivojlantirishga olib keladi. Bu esa ko'plab yangi boy oltin va kumush konlarini qidirib topishni va qazishni taqozo etadi. Dastlabki oltin konlari Sharqiy Alp tog'laridan olingan bo'lsa, XIII asrda quyi Seleziya, Gashteyn grafligi, Bobra daryosi bo'ylarida qazib olingan. Oltin konlarini qazish bo'yicha Vengriya Yevropada oldingi o'rinda bo'lgan. Bu yerda XIV asrda har yili 1000 kg. oltin qazib olingan. Transilval va Sloveniyada oltin qazib chiqarish tobora rivojlanib borgan. Bundan tashqari Afrika qit'asida ham oltin qazib olish jonlangan. XV asrning boshi va XVI asrning boshlarida Sengal oltini Yevropaga oqib borgan. Mutaxasislarni fikricha 3000 kg. oltin Yevropaga olib ketilgan.

XIII asrning o'rtalari va XIV asrning boshlarida kumush qazish ishlari ham takomillashib borgan. Uning oltinga nisbatan qiymati 1:10 va 1:11 ga teng bo'lgan. Buning sababi oltinning kamligi bilan izohlanadi.¹

Polshada oltin tanga zarb qilish 1320 yilda boshlangan. Qirol Aleksandr (1501-1506) davrida oltin tangalar doimiy zarb etib kelingan. Koshits shahrida topilgan oltin tangalar venger tangalari ekanligini isbotlamoqda. Fikrimizcha, polyak va vengerlar savdo munosabatlari shartnomasiga ko'ra, venger dukatlaridan foyda-lanishgan.

Shvetsiyada XV – XVI asrlarda Valter Plattenberg (1494-1535) davrida zarb qilingan. Tanganing yuz tomonida qirol tasviri va orqa tomonida but va gulchambar tasviri tushirilgan. Butun Chexiya hududida bu puldan tashqari yuqorida ta'kidlaganimizdek, venger va polyak tangalarini bozori chaqqon bo'lgan. Lekin bizni qiziqtiradigan tomoni shundaki, tangalardagi tarixiy shaxslarning qo'lyozma manbalardagi ifoda etilmagan qiyofalari va xis hayajonlarini aks ettiradi.

Finlandiyada Gulden oltin tangasi XV asrning 50-yillarida zarb etilgan. Bu kumush va mis tangalar bo'lgan.

Yuqorida tanga pularning zarb qilinishi haqida fikr yuritir ekanmiz,

¹ Русская нумизматика XI-XX веков. Изд. «Аврора». Л. 1979. стр-5.

Yevropa davlatlarida XIII – XVII asrlarda oltin tangalari Florin va Dukat doimo xaridorgir bo'lganligini eslatib o'tish joiz. Uning og'irligi bir maromda 3,5 gr.ni tashkil qilgan.

Daniya davlatida XIV – XV asrlarda Lyudovik I (1342-1382) davrida oltin tangalar zarb qilish yo'lga qo'yilgan. Tangalar 186 tipdagi turli xil rasmlar bilan bezatilgan. Lekin bularning ichida venger dukati Matvey Korvin (1458-1490) davrida eng xaridorgir oltin tanga sifatida xalqaro maydonda ishlatib kelingan. Venger oltin tangasi Boltiq bo'yi xalqlari – Latviya va Estoniyada keng tarqalgan. Savdo aloqalari kengayib borgan. Hozirda bu yerda topilgan oltin tangalar ayniqsa Talinda topilgan venger oltin tangalari bu haqida dalolat beradi.

VIII asr oxirlarida qadimgi rus davlati hududiga katta miqdorda sharq tangalari kirib kela boshladi. Bu tangalar "dirxam" deb atalib, O'rta Osiyo, Kavkaz orti, Eron, Kichik Osiyo, Messopotamiya kabi hamda Arab Xalifaligining katta hududida, Afrika va Ispaniyaning turli joylarida zarb qilinardi. Ilgari VI-VII asrlarda Rusga sharq tangalaridan sosoniylarning draxmalari ham etib kelgan edi.

Dirxamlar yirik dumaloq shaklda zarb qilinardi. Uning ikkala tomonida ham yozuvlar bo'lar edi. Bu yozuvlar xalifa yoki shohning nomi, zarb qilingan shahar, yil va shu kabilar edi.

Rus davlatiga Yevropa tangalari XI asr davomida kirib kela boshladi. Bu tangalarning asosiy qismini **german pfenniglari, Anglo sakslarning pennlari** tashkil qilardi.¹

Vizantiya tangalari ham qadimgi Rusda katta rol o'ynadi. Vizantiyaning oltin tangalari xalqaro savdo ishlarida ko'proq foydalanilsa, mis tangalaridan ichki savdodagi pul muomalasida keng foydalanilardi.

X asr oxiri - XI asr boshlarida Qadimgi Rusda o'zining xususiy tangasini chiqarish uchun birinchi marta ko'rinish bo'ldi. Yozma manbalarda rus tangalarini zarb qilishning boshlanishi haqida ma'lumot saqlanmagan. Lekin shu narsa aniqki, Rusda tanga zarb qilish tasodifiy emas, balki bu butun Rus tarixining

¹ Русская нумизматика XI-XX веков. Изд. «Аврора». Л. 1979. стр-12-13.

rivojlanishi davomida, avvalo ikki yuz yil mobaynida uning territoriyasida sharq tangalarining muomalada bo'lganligi natijasida yuzaga keldi.

Tanga zarb qilish Vladimir I Svyatoslavich knyazlik qilgan davrda (980-1015), aniqrog'i, 988 yilda xristianlik rasman qabul qilingandan keyin boshlandi. Bu haqda Iso payg'ambarning oltin tangalarida va kumush tangalarning ba'zilarida tasvirlanganligi dalolat beradi.

Tanga zarb qilishni Vladimir I ning o'gillari Svyatopolk (1015-1019) va Yaroslav Mudriy (1019-11054) lar davom ettirdi. Oltin tangalarni faqat Vladimir zarb qildirgan edi. Uning 4 ta turdagi tangalari ma'lum. Bu tangalarning old tomonida knyaz, orqa tomonida Isoning tasviri bor edi.¹

Russda pul muomalasi XII-XIII-XIV asrlar davrida, pulsiz davr hisoblanadi. Mo'g'ul-tatarlarning hujumi natijasida Rossiyada iqtisodiy hayot inqirozga uchragan. XIV asrning so'nggi choragida 350 yillik tanaffusdan so'ng, Rusda yana tangalar zarb qilingan. Yangicha iqtisodiy va siyosiy sharoitda rivojlanish yo'liga chiqib, bir vaqtning o'zida bir qancha shahar markazlarida zarb qilina boshlandi. Dastlab rus knyazliklarida Moskva knyazligi, knyaz Dmitriy Donskoy davrida zarb qilindi. Tanga "Dmitriy" nomi bilan ataldi. Old tomonida, qo'lida qilich ushlab turgan kishi yoki "xo'roz" aks ettirildi. Aylanasiga "Buyuk knyaz Dmitriy muhri" deb yozildi. Orqa tomoniga To'xtamish nomi yozildi, bu uning Oltin O'rdaga vassalligini bildirar edi. Mana shunday tangalar Rus davlatining feodal tarqoqligi davrida XIV asrlarda barcha shahar markazlarida zarb qilingan. Albatta, Rus davlatida markazlashgan davlatning tashkil topishi jarayoni, tangashunoslik sohasiga ham ta'sir ko'rsatgan. By esa Moskva knyazligi atrofida yagona Rus davlati qaror topganligi o'z ifodasini topgan. Buyuk knyaz Ivan III davrida o'ziga xos tangalar zarb etilgan².

1534-35 yillarda Elena Glinskaya tomonidan pul islohoti o'tkazildi. Yangi tangalarning vazni va o'lchov birligi o'zgardi. Mis tangalar-kopeykalar paydo bo'la boshladi. Rus tangalari mis metaliga asoslanadi. Biroq Ivan Grozniy ham o'z

¹ Введение в специальные исторические дисциплины. МГУ. 1990. стр - 127.

² Спасский.И. Г. Русская монетная система. -М., 1962. стр – 89.

davrida yangi tangalarini zarb qildira boshladi. Lekin katta qiymatdagi tangalarning yo'qligi salbiy oqibatlarga olib keldi.

1610 yilda Moskva knyazi Vasiliy Shuyskiy davrida oltin tangalar-koopeykalar zarb qilina boshlandi. **"Trivennik" va "pyatachok"** pullari muomalada bo'la boshladi¹.

1654 yili Aleksey Mixaylovich tomonidan yana pul islohoti o'tkazildi, Yirik kumush tangalar - "Taler" kabi, yirik mis tanga "dengi" - koopeykalari muomalada bo'la boshladi. Bu islohot ham iqtisodiyotga hech qanday ta'sir ko'rsatmadi, salbiy oqibatlarga olib keldi. XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida Rossiyada hokimiyat o'zgaradi.. Mashhur davlat arbobi sarkarda Pyotr I hokimiyat tepasiga kelishi bilan davlatning barcha sohalarida o'tkazgan islohotlari o'z natijalarini bera boshladi. Jumladan islohot numizmatika sohasida ham olib borilgan.

1700 yilda **"poltina"** va **"polpoltushka"** nomli mis tangalar zarb qildirgan. 1701 yili kumushdan "poltina", "polpoltushka" zarb qildirgan. Nihoyat 1704 yilda kumush rubli, ko'p partiyada mis koopeykalar zarb qildirgan, undagi yozuvlar slavyan harflari bilan bitilgan. 5- va 10 tiyinlik tangalar rubl - taler, kumushdan "oltin" tangalar, rubl, "taler" va mis tangalar, oltin - chervonetslar zarb qilina boshlangan. By esa mamlakat iqtisodiyoti uchun ijobiy oqibatlarga olib kelgan².

Chervonets og'irligi 3,4 gramm G'arbiy Evropaning dukati bilan tenglashgirilgan. Mana shu tarzda XVIII asrda Pyotr I ning islohotlari natijasida Rossiyaning iqtisodiy hayotida stabillashuv jarayoni ro'y berdi. Bunga chervonets, rubl deb nomlangan pullarning zarb etilishi ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Mazkur pul islohoti Russni markazlashgan davlat sifatida rivojlanishiga ulkan hissa qo'shadi.

¹ Спасский.И. Г. Русская монетная система. -М., 1962. 87- bet.

² Русская нумизматика XI-XX веков. Изд. «Аврора». Л. 1979. стр-19-20.

3. O`rta asrlar Yevropa davlatlari numizmatikasini davrlashtirish.

Birinchi metal tangalar miloddan avvalgi XII asrda Kichik Osiyoning Lidiya davlatida zarb qilingan. Keyinchalik miloddan avvalgi XII asrda Xitoyda, Hindistonda Kichik Osiyo davlatlarida paydo bo`ladi. Demak, yuqorida aytib o`tilganlardan ma`lumki, Numuzmatika–(lotincha numuzma)-tangalar haqidagi fan, tangalarini tasvirlari, yozuvlari, og`irligi, qanday metaldan yasalganligi, pul muomilasidagi darajasi va tanga zarb qilinishi tarixni o`rganadi.

Numuzmatika xronologiya, moddiy madaniyat, ichki va tashqi savdo tarixi masalalarini tekshirishga imkon beradi, tarix, arxeologiya faleografiya, san`at tarixi, iqtisod, etnografiya faktlari uchun katta ahamiyatga ega. O`rta asrlar Yevropasida numizmatika sohasi yaxshi o`rganilgan. Tahlil va tadqiqotlar ancha ko`p. Shu bois:

O`rta asr Yevropasida tangalar tarixini 5 davrga bo`lamiz:

1. Varvarlar zarblari - V – VIII asr o`rtalari
2. Karoling dinori – VIII o`rtalari – X asr
3. Feodallar dinori – X – XIII asr o`rtalari
4. Grosha – florina – XIII asr o`rtasi XVI asr boshi
5. Taler davri – XVI asr boshi XVIII – XIX asrlar¹

Birinchi davrda varvarlar zarblari - V – VIII asr o`rtalarida O`rta asr Yevropasi mamlakatlarida Rim imperiyasi qulagandan keyin Vizantiyada (Konstantinopol) Anastasiy I (491-518) davrida uning nomi bilan qanotli g`alaba xudosi va **(SONO – Konstantinopol)** nomining 4 harfi yozilgan kumush tangasi zarb qilinadi Vizantiya Imperatori Tiberii (578-582) tomonidan birinchi oltin tanga zarb qilinadi. 568 yili Leovigeld (576 – 586) davrida Ispaniyaning Priney yarim oroli qo`shib olinib **tresns** deb atalgan tanga V tipida (g`alaba) imperator portreti berilgan tangalari zarb qilinadi. Pul zarb qilish imperator Dialektian (284-305) davrida ancha jonlangan. Konstantin I

¹ Введение в специальные исторические дисциплины. МГУ. 1990. стр -90-92.

ning birinchi kumush tangasi (1/144), Konstantin II (337-361) oltin tangasi Burgundiya, Langobard, Anglosakslar ana shu varvarlar tangalaridan foydalanishgan.

Vestgotlar. Alarix II (487-507)uning o'g'li Tezalix (507-511), Amalarix (511-526) davrida kumush va oltin tangalarda monogammalar ya'ni yozuvlar o'yib yozilgan. Bu **AMR** harflaridir. Orqa tomonida (**V**) G'alaba tasviri yozilgan. Yustian I (518-527 va Yustian II (527-565) davrida Iso payg'ambar tasviri o'yib yozilgan. Shular tarkibida Amalarixning tangalari saqlanib qolgan. Uning pullari butun Ispaniya bo'yicha xaridorgir bo'lgan. Bu tangalar to 531 yilgacha amalda bo'lgan.

568 yilda taxtni Leovigild (568-586) vestgotlarning eng kuchli hukumdori egallaydi. Tanga zarb qilish takomillashadi. Vestgotlarning oxirgi qiroli Germengild (579-585) davrida triens tangasi zarb etiladi. Tanganing old tomonida krest va qanotli farishta, orqa tomonida har xil nomlar yozilgan. Masalan: PIVS, FELIX, VICTOR va boshqalar.

Langobardlar. Perktarita (672-688), Kipinert (688-700), Aripert (700-712) tangalarida **DN CVNIGPER**, Pamxis (744-749) davrida esa tanganing old tomonida imperator portreti chizilgan.

VII asrning II-yarimida Irakliya (610-641), Konstantin II (641-648) davrida tanganing old tomonida imperator portreti orqa tomonida krest tasviri tushirilgan. Dizederiy (756-774) davrida krest tasviri yulduzlar tasviri bilan to'ldirilgan. Oltin va kumush tangalar imperator Yustian I, Yustian II va Teberiya (582 – 602) portreti tushirilgan tangalar zarb qilinadi. Yuza tomonida krest (but) chizilgan va tanga **triens** deb atalgan.¹

Merovenglar davrida VI asrning ikkinchi yarimida solid va triens tangalarida krest tasviri muqaddam joy olgan. Dastlabki mis tangalar ham vujudga kelgan. Bu tangalar Avstraziya Teuderix (511-534) va qiroli Neustr Xildebert I (511-558) davrida ancha rivojlangan. Tanganing yuz tomonida **DN**

¹ Введение в специальные исторические дисциплины. МГУ. 1990. стр – 120-122.

THEODEBEPTVS yozuvi bitilgan. Bu pul muomalasi Parij, Sani, Mass, Mazel, Reyn, va Marsel bo'ylab harakatda bo'lgan. Tangalar zarb qilish makonlari ham kengaygan. Merovenglar davrida 900 ga yaqin joylarda pul tangalar zarb etilgan. Mahalliy hukumdorlar o'z qasrlarida ham Fransiya va Angliyada VII asr o'rtalarida oltin solid hukumron bo'lgan. Tanga yuzasida gulchambar tasviri bo'lib orqa tomonida Viktoriya (V) g'alaba tasviri zarb qilingan. Yoki ko'pincha orqa tomoniga but rasmi tushirilgan. VII asrda shuningdek kichik og'irlikdagi 1,1 1,3 gr, kumush dinorlari zarb qilingan. Portret, but, yozuv bitilgan. Birinchi davr qariyb 300 yilga cho'zilgan. Tanga pullarni o'g'irligi 1,1 gr.dan 1,3 gr. gacha bo'lgan.

Ikkinchi davrda, Karoling dinori – VIII o'rtalari – X asr davri mobaynida turli o'zgarishlarga sabab bo'lgan.

Tipin Korotki (751 – 768) davrida kumush dirxam og'irligi jihatidan 780 gr bo'lib oltinni siqib chiqaradi. Tanganing **“funt”** nomini olishi Buyuk Karl (768 – 814) zamonasida yuz beradi. Tanganing yuziga qirol rasmi, ikkinchi tomoniga tanga zarb qilingan qasr tasviri tushiriladi. Tangalarning old tomonida yozuv saqlangan. Masalan: **RT PEX PIPINS**. Qirol Karloman (768-771) davrida **CAR= LOM** harflari har ikki tomonida ham tushirilgan 800 – yili Rim papasi Lev III Buyuk Karlni cho'qintiradi. Endi tanganing orqasida cherkov, shahar darvozasi va kema tasviri tushuriladi. Tangalarda yozuv saqlanib qolgan. **IMP ERATOR** yoki **AVG VSTVS** gulchambar va imperator portreti tushurilgan.

Angliyada qirol Eduard Muchenik (975-978), Knut (1016-1035), Garold (1035-1040) Xardaknut (1040-1042), Eduard Ispovednik (1042-1066) davrida oltin tangalar zarb etilgan. Tangada qirol portreti, yani boshi va orqa tomonda but tasviri tushirilgan. Keyinchalik, qirol Vilgelm Bosqinchi (1066-1087), Stefan I (1135-1154), Genrix I (1100-1125), Genrix II Plantagenet (1154-1189) davrida **penni** nomli oltin tanga zarb qilib, savdo va to'lov vazifasida keng qo'llangan. Grafliklarning qudrati tobora oshib borgan. Ayniqsa Anjuy grafligi boshqa shaharlar bilan har doim raqobatda g'olib kelgan. Bu

graflikda og'irligi 1,5 gramli oltin tanga zarb etilgan. Tanganing yuza qismida qirol boshi orqa tomonida esa but tasviri tushirilgan. Faqat Genrix VIII (1485-1509) davrida penni o'g'irligi 0,54 grammga tushib qoladi.¹

Uchunchi davr feodallar dinori – X – XIII asr o'rtalarigacha davom etib, bu davr rivojlangan feodalizm davri deb ataladi. Yevropada Italiya davlati o'ziga xos rivojlanishni boshidan kechirayotgan edi. Undagi shaharlarning rivojlanishi, savdo - sotiqning o'sishi pul muomalasini yanada rivojlanishini taqazo etgan. Qirol Barbarossa Fridrix I (1152-1190) davrida oltin tanga pullari 0,82, 0,84 gr. tashkil etgan². Oltin tanga 660 probali bo'lib, xalqaro maydonda xaridorgir bo'lgan. Italiyaning Florensiya shahri o'sha paytda eng odamlar bilan gavjum shar sanalgan. Sharda 1,75gr. keyinchalik 1,80 gr. tanga zarb qilish yo'lga qo'yilgan. Yuza qismida gulchambar va shahar gerbi, orqa tomonida Iso Payg'ambar tasviri tushirilgan. Tangada gul tasviri bo'lgani uchun (latincha: flos, fiore) **florin** nomini olgan.

Venetsiya shahri o'rta asrlar Italiyasining eng gullab yashnagan davriga to'g'ri keladi. Shahar nihoyatda boy bo'lgan. Dunyo mamlakatlarining kemalari savdo sotiq olib boorish uchun shu shaharga kemalarda kelishgan, savdo boji to'lashgan. Benetsiyada qirol Enriko Dondalo (1192-1205) davrida 2,18 grammlil kumush tanga zarb etilgan. 1285 yildan 3,56 grammlil oltin tanga zarb etilgan. Tanganing old tomonida **DVCAT** so'zi yozilgan.

Fransiyada qirol Luyudovik IX (1226-1270) davrida 4,22 grammlil, 958 probali oltin tanga zarb etilgan. Tanga **grosha** nomini olgan. 1306 yilda qirol Filip IV 42,5 grammlil oltin dinor zarb etadi. Lekin yillar davomida tanga nominali pasayib brogan. Masalan, 1365 yilda Karl V (1364-1380) davrida bu dinorning og'rligi 2,55 grammni tashkil etgan.

To'rtinchi davr, grosha – florina – XIII asr o'rtasi, XVI asr boshlarigacha davom etgan. Asosan 1137 yilda yuz yillik urush barcha Yevropa davlatlarini iqtisodiy ravnaqiga rahna solgan. To'lov, soliq yig'ishda

¹ Введение в специальные исторические дисциплины. МГУ. 1990. стр – 116-117

² Shu yerda: 119 -bet

qiyinchiliklar boʻlgan. Oltin pullar kamayib ketgan. Bu esa oltin va kumush konlarini qidirib topish va kovlab olishni taqazo etgan. Albatta primitiv asbob - uskunalar, ishning ogʻirligi, xafiligi, koʻp odamlarning oʻlimiga olib kelgan.

XV asr Yevropa davlatlarida pul zarb qilishning rivojlangan davriga kiradi. Asosan kumush tangalar talerlar zarb qilish va hududlar boʻyicha chiqarish kengayadi. Ayniqsa qadimgi german hududlarida shahar davlatlarida Lyunbergda (1434), Gamburgda (1435), Saksoniyada (1455), Bremenda (1463), Polshada (1320) yillarda zarb qilish yoʻlga qoʻyilgan.

Agar biz XV asrdan to XVII asrgacha boʻlgan kumush va oltin tangalarni nominalini qiyoslaydigan boʻlsak, quyidagi manzarani koʻramiz:¹

Yillar	Rus davlati	Polsha	Avstriya	Gʻarbiy Yevropa
1493-1520	10,78	7,43	-	10,75
1521-1544	10,68	10,90	10,98	11,25
1545-1560	10,47	11,07	11,13	11,30
1561-1580	11,16	11,70	11,19	11,50
1581-1600	10,63	11,10	10,88	11,80
1601-1620	8,27	11,80	11,78	12,25
1621-1640	11,04	13,12	13,80	14,00
1641-1660	11,75	14,30	14,48	14,50
1661-1680	12,46	12,63	14,59	15,00

Yuqoridagi jadvalda koʻrib turganimizdek, Rusda ham Gʻarbiy Yevropa davlatlarida ham oltin va kumush tangalarning hajmi oshib borgan. Bu iqtisodiy oʻsish suraʼtlarini, talabning oshib borishini koʻrsatadi. Rus Yevropaning oltin tangalaridan keng foydalangan.

Beshinchi davr, taler davri – XVI asr boshi XVIII – XIX asrlargacha davom etgan. Oltin tangalar haqida fikrimizni davom ettiradigan boʻlsak, soliq yigʻuvchilar roʻyxatida Yevropa davlatlariing aholi sonini ham aniqlay

¹ Русская нумизматика XI-XX веков. Изд. «Аврора». Л. 1979. стр-20.

olishimiz mumkin. Masalan, Gollandiya hududida 1623 yilda 15 mln. aholi yashagan. Gollandiyada XIV asrda yiliga 18-19 kg oltin tanga zarb etilgan. XV asrda Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin savdo munosabatlari rivojlanishi natijasida mamlakatlar o'rtasida umumiy qiymatga ega bo'lgan pul muomilasini tashkil etishni talab qiladi. Tanga XV asrda Venesiyada Nikola Tron (1471 – 1473) 945 probali og'irligi 6,52 gr. kumush tanga zarb qilinadi. Tanga **Lir** deb ataladi – orqa tomonida sher rasmi tasvirlangan.¹ Mazkur tanga nisbatan boshqa mamlakatlar bilan to'lov vazifasini bajarishda ishlatilgan, xaridorgir bo'lgan.

Tanga pullarning keyingi taraqqiyotiga e'tabor qaratsak, har bir davlat o'z taraqqiyotidan kelib chiqib, iqtisodiy rivojlanishi uchun o'z tanga pullarini zarb etganini ko'ramiz. Albarta be oltin, kumush va mis tarzida amalda qo'llanib kelingan. To qog'oz pullar chiqquncha tangalar muomalada bo'lgan, iqtisodiy, savdo – pul munosabatlarini tartibga keltirib turgan. Jamiyat taraqqiyoti hamma vaqt pul muomalasini yangilashni, savdo va xo'jalik yuritishni yangicha usullarini joriy etishni taqazo etib turgan. Muhimi, jamiyatda tovar pul munosabatlarini tartibga solish va barqarorlashtirishda muhim kasb etgan.

1974 yili gersog Lelesio Mariya S. Foria (1966 – 1984) o'zini rasmi bilan tanga zarb qiladi. 9,65 gr. 960 probali tanga **teston** deb atalgan. Lekin bu pul uzoq muomalada bo'la olmadi. Keyinchalik, Chexiyani **Yaximov** – shahrida **taler** tangasi zarb qilinadi, 2,9 gr. Yangicha tanga yuzida Ioaxim Svetoy – orqa tomonida sher rasmi tushurilgan. Bu tanga Ispan Amerikasida keng tarqalgan. Gollandiyada – **dolder**, Italiyada – **taller**, Skandinaviyada – **doler**, Shimoliy Amerikada – **dollar** deb atalgan. Angliyada **kron**, Ispaniya, Niderlandiyada – **potagon**, **detal**, Ispaniyada – **peso**, Italiyada – **skudo**, Fransiyada – **ekyu** deb atalgan. Keyinchalik mazkur tanga umumiy nom olib **dollar** deb atalgan.

¹ Введение в специальные исторические дисциплины. МГУ. 1990. стр – 119-120.

II. Bob. Osiyo va G'arb davlatlari xalqlarining savdo va madaniy aloqalari va uning tanga pul muomalasiga ta'siri (V - VII asrlar).

1. Vizzantiya, Xitoy tanga zarbi an'analarininig Turk xoqonligi tangalariga ta'siri.

V asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiston siyosiy hayotida eftaliylar xonadoni hukmron o'rin tuta boshlaydi. Bu yillarda zaiflashish yo'liga kirgan kushonlar saltanatining g'arbiy sarhadlari sosoniylar tahdidi ostida qolgan edi. Shuning uchun bu ikki sulola o'rtasida raqobatlashish tabiiy edi. V asrning 30-yillaridan to'qnashuvlar sodir bo'ladi.

Sosoniylar davlatning sharqiy viloyatlarini (*Seyistondan Margiyonagacha bo'lgan hudud*) boshqarganlar. Shu munosabat bilan ular qo'shni o'lka siyosiy, savdo doiralar bilan yaqindan muomalada bo'lgan. Sosoniylarni mazkur hududlarni boshqargan hukmdorlari "**kushon hukmdor**"lari unvoniga ega bo'lgan. Ammo eftaliylar qudrati oshib, Sosoniylarga qarshi kurashga kirishishini anglagan Peruz dastlab ularga qarshi urush ochadi, asirga tushib qoladi. Vizantiya hukmdorlarining yordami bilan ozod qilinadi, keyin yana ikki marta harbiy yurish uyushtiradi. Yana asir olinib 30 xachir kumush dirham evaziga ozod qilinadi.

Bundan tashqari mahalliy tanga nusxalari ham bo'lgan. Bu borada "**Xorazm chavandozi**"tasviri milodning I asridan VIII asrigacha bo'lgan tangalardan joy olgan. Xorazm hukmdorlari o'z tangalarini zarb etishni yo'lga qo'yganlar. Pul tizimini joriy qilinishi davlatchilikni rivojlanganligidan dalolat beradi¹.

Eron sosoniylarini kumush tangalari Turkistonga ko'plab keltirilgan. Ularni old tomoniga shahanshoh tasviri, orqa tomoniga esa ikki soqchi o'rtasida o'tli mehrob tasvirlangan. Ana shunday dirhamlarga taxlitidan hukmdorlari buxorxudotlar nomida yuritilgan. Amularyo viloyatlari hamda Buxoro vohasida kumush tangalar zarb qilingan. Shu bois Buxoro tangalari-buxorxudot tangalari nomini olgan.

¹ Isoqboyev Alisher Ahmadjonovich. Numizmatika. /Elektron -o'quv manba/ GDU. 2008. 39-bet. Internet ma'lumotlari.

V-VII asrlari - ilk o`rta asr davri O`rta Osiyo tarixida keskin o`zgarishlar ro`y berdi; feodalizm tuzum mustahkamlanib, tobora rivojlanib bordi. VI asr o`rtalariga kelib Eftaliylar davlati Turk hoqonligi tomonidan tugatildi. 551 yilda Ashina qabilasi sardori Bumin tomonidan Oltoyda Turk xoqonligiga asos solindi. Turklar tez orada qo`shni hududlarga istilochilik yurishlarini boshladi. Istemi yobg`u boshchiligidagi turklar dastlab yettisuvni va Sirdaryogacha bo`lgan hududlarni qo`lga kiritdilar. 567 yilda kelib, Karmana yaqinida eftaliylar bilan bo`lgan hal qiluvchi jangda g`alaba qozongan turklar eftaliylarga tegishli barcha hududlarni egallab oldilar. Sosoniylar bilan turk xoqonligi o`rtasidagi chegara qilib Amudaryo belgilandi.


Turk xoqonligi ichki siyosiy ziddiyatlar tufayli VII asr boshlariga kelib, ikki qismga - G`arbiy va Sharqiy xoqonliklarga bo`linib ketdi. O`rta Osiyo hududi G`arbiy xoqonlik tarkibiga kirgan. G`arbiy Turk xoqonligi Eron, Vizantiya, Xitoy kabi davlatlar bilan faol diplomatik munosabatlar o`rnatgan edi. Eftaliylarga qarshi kurash davrida turklarga ittifoqchi bo`lgan Eron sosoniylari bilan munosabatlar, ayniqsa, ziddiyatli edi. Bu ziddiyatning asosiy sababi Buyuk Ipak yo`lini nazorat qilish masalasidagi kelishmovchilik bo`lib, Eron o`z hududidan turk va so`g`dlarning savdo karvonlarini o`tkazmay qo`ydi. Natijada, turk xoqonligi Vizantiya bilan aloqalarni saqlash uchun Kavkaz, Qrim, Qora dengizning shimoliy hududlarini egallab oldi. Shu tariqa turk xoqonligining Vizantiya bilan aloqalari Buyuk Ipak yo`lining shimoliy tarmog`i bo`ylab amalga oshirila boshladi. Turklarning xalqaro aloqalarida so`g`d savdogarlari yetakchi o`rin tutganlar. Sharqiy Turkistonda, Xitoyda, Shimoliy Hindiston, Pokiston, Mo`g`ulistonda va boshqa hududlarda so`g`d yozuvlarining topilishi bu davrda so`g`dlarning xalqaro aloqalardagi mavqeidan dalolat berardi. Moddiy va badiiy madaniyat sohalarida ham ulkan o`zgarishlar yuz bera boshladi. Turgan gapki, tanga zarb qilish ishi bu o`zgarishlardan chetda qolmadi. Bu erda odatdagidan tashqari behisob tanga chekan (shtamp) lar paydo bo`la boshladi.

Turk xoqonligi davrida O`rta Osiyoda mahalliy boshqaruv tizimi saqlab qolindi. Xususan, So`g`d va Farg`onada Ixshidlar, Xorazmda Afrig`iylar,

Toxaristonda Malikshohlar, Chochda Tudunlar mahalliy boshqaruvni amalga oshirganlar. Ilk o'rta asrlarda so'g'd tili bilan bir qatorda qadimgi turk-runiy, uyg'ur, xorazm, braxma va boshqa yozuvlar ham mavjud bo'lgan. Diniy e'tiqodlar xuddi eftaliylar davridagidek turli-tuman edi. Bunday holat arablar istilosigacha saqlanib qoldi.¹

Vizantiya tangalari

G'arbiy Turk xoqonligi tangalari²



¹ Ретвеладзе. Древние монеты Средней Азии. Ташкент. 1987. стр- 21-23

² O'zbekiston tarixi. Jurnal. O'z Res. FA. Boboyorov G', Kubatin A. //Garbiy Turk xoqonligi tangalari ikonografiyasiga Vizantiya ta'siri masalasiga doir//. 3-10 betlar.

Rivojlangan mintaqalarida, quldorlik tuzumi inqirozga yuz tutib, feodalizm davri boshlandi. Natijada jahon mamlakatlari bilan keng ko'lamdagi savdo va madaniy aloqalar yanada faollashdi. Bu davrda Turkistonga **Vizantiya tangalari** kirib kelib, Chag'oniyon, Sug'd, Choch va Farg'onada tanga chiqarishga o'z ta'sirini o'tkazdi ¹.

Bu ta'sir juft tasvirlarning paydo bo'lishida o'z aksini topadi. Sug'd, Choch va Xo'jand oralig'ida joylashgan Ustrushon tangalari ham diqqatga sazovordir. Ularning ayrimlarida Hindiston bilan aloqalarga shama qiluvchi fil tasviri keltirilgan.

Yuqorida ko'rib turganimizdek, Vizzantiya imperatori Yustian II ning (565-578) malika Sofiya bilan birgalikdagi tasviri Turk xoqonligi tangalariga o'z ta'sirini o'tkazgan. Xuddi shu davrda taxminan 568 yilda Turk xoqonligining Maniax boshchiligidagi elchilari Yustian II ning huzurida bo'lgan. Yuqoridagi tangalarni bir biriga solishtirsak:

1. epigrafik jihatidan;
2. qo'sh rasml;
3. hukumdorning yoki malikaning o'tirib taxtni boshqarayotgan holati tasviri bir- biriga o'xshash ekanligini ko'ramiz.

Xitoy bilan aloqalarning kuchayishi natijasida O'rta Osiyoning ayrim viloyatlarida **Xitoy** namunasidagi tangalar zarb etila boshlandi. Ko'p asrlar mobaynida Xitoyda mis (yoki bronzadan) ishlangan. O'rtasida kvadrat tarzidagi o'yiqli tangalar yagona pul xizmatini o'tagan. Ular zarb etilmay balki quyilgan. Shunday xitoy tangalari taxlitidagi (xitoy ierogliflarisiz) o'rtasi o'yiqli quyma tangalar Samarqand, So'g'dda. Buxoro vohasida, Farg'onada, Ettisuvda va Amularyo bo'yi viloyatlarida chiqarilgan.²

¹ Ретвеладзе. Деревние монеты Средней Азии. Ташкент. 1987. стр- 21-23

² O'zbekiston tarixi. Jurnal. O'z Res. FA. Boboyorov G', Kubatin A. //Garbiy Turk xoqonligi tangalari ikonografiyasiga Vizantiya ta'siri masalasiga doir//. 3-10 betlar.

So'g'd. Choch va Xo'jand oralig'ida joylashgan Ustrushon tangalari ham diqqatga sazovordir. Ularning ayrimlarida chamasi **Hindiston** bilan aloqalarga shama qiluvchi fil tasviri keltirilgan. Umuman olganda ilk O'rta asrlar tanga nusxalarining nihoyatda xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Garchi O'rta Osiyo VI asrda Sariq dengizdan Qora dengizga qadar cho'zilgan ulkan turk xoqonligi tarkibiga kiradi.

Turkiston erlarida amalda hukmronlikni o'nlab O'rta va mayda mulklarning hokimlari amalga oshirib, ulardan deyarli har biri o'z tangasini chiqarishga intilgan. Shunisi diqqatga sazovorki. Turkistonning deyarli barcha viloyatlari iqtisodiy rivojlanishning shunday darajasiga erishdiki. natijada o'z tangasini chiqarish zarurati tug'ildi. Natijada bu davrga kelib barcha Turkiston viloyatlari numizmatika sahnasiga chiqdi.

Chochda tanga zarb etish to'rtinchi asrdan oldinroq ilk O'rta asrlarda nusxalarning nihoyatda xilma-xilligi bilan ajralib turuvchi tanga zarb etadigan bir qancha markazlar tarkib topdi. Farg'onada ilk bor o'z tangasi, chamasi VI asrda paydo bo'lgan. VIII asrda esa, bir qancha yerlarda chiqarilgan. Ustrushonda tanga zarb etish VII asrda vujudga kelgan. Keshda o'z puli zarb qilina boshlanganligi aniqlangani yo'q.

Naxshabda tanga zarb etish IV asrdan boshlanib, VIII asrda ham davom etgan. Bu vaqtga kelib tangalar hamma yerda chiqarilgan bo'lsada, Turkistonning barcha viloyatlari iqtisodiy jihatdan bir xil rivojlangan emas. Bu borada Samarqand- So'g'd etakchilik qilgan, zero bu yerda mis tangalar juda ko'p chiqarilar edi.

Umuman olganda bu davrda O'rta Osiyo ko'plab kichik va mayda egaliklarga parchalanib ketgan edi. By parchalanish har bir viloyatning o'z tangasini bo'lishiga olib keldi. Mas,: Nahshabda (Qashqadaryo vohasining qadimgi shahri) III-V asrlarda bir tomonda podsho kallasi. ikkinchi tomonda podshoning sher bilan kurashini aks ettirgan mis tangalar zarb qilingan.

VII asrning ikkinchi choragidan e'tiboran Samarqand podshohlari to'rtburchak shaklidagi teshikka ega bo'lgan, So'g'd yozuvi bitilgan mis tangalarni

zarb qilganlar¹. Mazkur tangalarda kichik hokimlar o'z unvon va ismlarini, shuningdek tanga zarb etilgan joyni ko'rsatib o'tganlar. Mas.: *Panch (Panjikent) yoki Seyiston va hokazo. Shunisi diqqatga sazovorki Samarqand hukmdorlarining zarb qildirgan mis tangalari hozirgi kunda yuzlab, ayrim hollarda katta xazinalar tarzida topilmoqda*. Bunday tangalar biriichi navbatda ichki mayda savdoga xizmat qilgan. Bu tangalar boshqa viloyatlar Naxshab Choch, Xorazm, Toxariston va Eronda ham topilgan. Yuqorida nomlari keltirilgan viloyatlar siyosiy jihatdan bir-biri bilan ajralib ketgan bo'lsa ham ularning o'rtasidagi savdo aloqalari yaxii yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi.

Sug'd. Ilk sug'd tangalarining o'ngida silliq sochli ma'budaning tasviri bo'lsa-da, VII asrning yarmidan Sug'd hokimlari – ixshidlar hamda ularga tobe amlokдорlar to'rt burchak teshikli, hech bir tasvirsizsiyqa tangalar zarb qila boshlashadi. Tanganing o'ngida kursiv bilan berilgan sug'd yozuvi hukmdorning ismi va unvonini (masalan, "Shoh Shipshir") bildiradi. Tanganing tersida tersida esa har bir hukmdorning o'z sulolasiga xos belgi berilgan. Olimlarning aniqlashicha bu tipdagi tangalar Poykant va Chochda zarb etilgan. Keyinchalik sug'd yozuvi bilan birgalikda arab yozuvi ham paydo bo'la boshlagan.. Sharqiy sug'd numizmatika materiallarini katta qismini Ixshitlar sulolasi (bu nom shartli ravshda qo'llanib sug'dning oliy hokimiyatni boshidagi podsholar unvoni ma'nosini bildiradi) tangalar tashkil qiladi. Ixshit so'zi Sug'd podsholariga nisbatan ishlatilgan haqida ilmiy bahs yuritilgan adabiyotlar anchagina katta bibliografiyani tashkil qiladi.

Ixshitlar tangalarining hususiyati dastlabki bosqichda Xitoy va Uzoq Sharq tangalari tipiga taqliddan iborat. Taqlid esa tanganing metal doirasi o'rtasida kvadrat teshikchali ekanligida namoyon bo'ladi. Hatto bu tipning eng birinchi namunalari ikki tilli tangalar bo'lib, o'ng yuzasida xitoycha, ters yuzasida sug'dcha yozuvlar bo'lgan².

Shu davrlarda **Chochda, ya'ni VI-VII asrlarda** bir necha xilda ko'plab

¹ Ernazarova.T, Kochnev.B. Tangalar o'tmish darakchilari. T. "Fan". 1977. 12 – bet.

² Ретвеладзе. Деревние монеты Средней Азии.Ташкент. 1987. стр- 22.

tangalar zarb qilingan. Ularda So'g'd yozuvlari, tamg'alari, podshoning boshi yoki rafiqlarining rasmi ifodalanar edi. Tanga pullar xilining ko'pligi Chochda pul savdosini juda ham rivojlanganligini ko'rsatadi. Ko'pincha tangalarning o'ngida tik boquvchi yohud yuzini xiyol chetga burib turgan hukmdor yoki shoh va malikaning siymolarini ko'rish mumkin. Tangalarda yirtqich hayvon, yoydoq ot va tuya tasvirlari ham tez-tez uchrab turadi. Olimlarning fikricha, bu jonivorlar hukmdor urug'ining homiy totemlari bo'lsa kerak. Tangalarning tersi bir xil - o'rtada tamg'a, uning gir atrofida hukmdorning ismi, unvoni hamda mulk nomi sug'd yozuvida berilgan. Shuningdek boshqa turdagi Choch tangalari ham topilgan. Unda tanganing o'ngida bir-biriga teskari qarab turgan hayvonlarning kallalari bilan bezatilgan taxt ustida chordona qurib o'tirgan hukmdorning tasviri bor. Hukmdor o'zi to'g'ri o'tirsa-da, yuzi chetga burilgan. Uning o'ng qo'li "xudo yarlaqasin" mazmunida ko'tarilgan, chap qo'li esa kalta qilich dastasidan maxkam tutib turibdi. Boshinig chap tomonida ilohiy-fazoviy ramz ma'nosida yulduz va yarim oy tasviri berilgan. Mazkur tangadagi ilohiy hamda dunyoviy ramzlarning mushtarakligi, balki teokratizm - ya'ni, bir odam qo'lida qo'shaloq vazifa, ham kohinlik ham shohlik jamlanganining ifodasi bo'lsa bo'lsa ajab emas¹.

Choch tangalari guruhi tanga doirasidagi tasvirlar bo'yicha mutlaqo noyobdir. Masalan, turkumning ko'pgina tangalari uning yuzasiga fantastik vahmiy hayvonning hujmkor (dahshat soluvchi) qiyofasi tushirilgan tasviri tanga tiplari bo'yicha har xil. Ba'zan hayvonning boshi o'ng tomonga, goho chap tomonga qaratilgan. Ba'zi tanngalarda oldingi o'ng oyog'iga cho'kibroq, chap oyog'ini mushuksimonlarga xos ko'targan holda tasvirlandi. Dum esa keskin baland ko'tarilgan va tananing tepasiga bo'shliqni to'ldirib joylashtirilgan.

Choch tangalari seriyasida hokimiyat ramzi sifatida u yoki bu tomonga qaratilgan panshoxasimon tamg'a tasvirlaganini alohida tasvirlab o'tish lozim. Choch tangalariga sug'd milliy yozuvi asosidagi xat bitilgan. Umuman, keyingi

¹ Ретвеладзе. Деревние монеты Средней Азии. Ташкент. 1987. 21-бет.

vaqtda sug`dcha yozuvli tangalarning qator yangi tiplari topilayotgan sug`d yozuvining Choch uchun ham qadimdan o`ynagan madaniy rolni tushunishga yordam beradi. Choch tangalar seriyasi, qayd etganimizdek, yozuvsiz tangadan boshlanadi. Bu namuna Chochda sug`d yozuvi aks etgan tangalar V – VI asrdan boshlanganidan dololat beradi. Chunki seriyasining keyingi namunasi sug`d yozuvining Samarqand tangalarida aks etgan ko`rinishiga yaqin xat bor. Yozuv doiralarining o`rtasida esa Choch tamg`asi joylashgan. Tamganing yozuvi «iski» so`zdan iborat bo`lib doiraning tepa yarim yoni va pastki yarim yoyi bo`ylab qarama – qarshi joylashgan.

Ustrushona. Samarqand hokimlarining chiqargan tangasidan qo`shni Ustrushona (**Jizzax va O`ratepada**) viloyatida VI-VIII asrlarda zarb qilingan tangalar tubdan farq qilgan. Ularda to`rtburchak shaklidagi teshiklar bo`lmay, balki hukmdorning rasmi va So`g`d yozuvida hukmdorlarning nomi va unvoni hamda tamg`asi ifodalangan. Bu tangalarning o`ngida sasoniylar tangalariga taqliddan boshiga qanotli chambar kiygan hokimning tasviri berilgan. Hokim Satagari tangalarida buning o`rniga butparastlarning donishmandlik ramzi bo`lmish fil tasviri berilgan.²

Buxoro. Buxoro viloyatida O`rta Osiyoga ko`plab kirib kelgan Sosoniy kumush tangasi ta`siri katta bo`lgan Tanganing bir tomonida hukmdorning kallasi, ikkinchi tomonida kohinlar bilan mehrob olovi tasvirlangan. IV-V asrlargacha Sug`dda yoychi tasvirlangan mayda kumush tangalar chiqarilgan. Yaqinda qadimiy Samarqand (Afrosiyob) hududida ana shunday tangalar xazinasini topilgan.

IV – V asrda zarb etilgan Buxoro mis tangalarining o`ngida toj kiygan hokim boshining nuqtalar bilan o`ralgan tasviri, terisida esa sosoniy-larning tangalariga xos otashparastlar mehrobi yoki tamg`a berilgan. Oromiy

¹ Ретвеладзе. Древние монеты Средней Азии. Ташкент. 1987. стр- 22

² Shu erda: 22-23 betlar.

tilidagi yozuv hukmdorning ismi va unvonini (masalan, «Asvor shoh») ifodalaydi¹.

Eramizning V asr o'rtalaridan bu yerda Sosoniy sulolasiga mansub shoh Varaxran V tangalariga o'xshatib kumush draxmlar (Buxorxudotlarning tangalari) zarb etish yo'lga qo'yildi. Ularning o'ngida boshida jimjimador tojli, sosoniylar shahanshohining yon tomondan olingan tasviri, tersida esa muqaddas olov qo'riqchilari – mobedlarning tasviri tushirilgan. Tangalardagi yozuv so'g'd xatining Buxoro shakli bo'lib, «Buxoro shohi» ma'nosini anglatadi. Bir tarafda **nortuya** – bu «Avesto»da keltirilgan urush ma'budi Veretratna bo'lsa kerak – tasviri berilgan mis tangalar ham keng joriy etilgandi.

Farg'onada. Yaqinda Samarqand muzey kolleksiyasidan V-VI asrlarga oid Farg'onaning tangasini topishga muvaffaq bo'lindi. Qadimiy yozuvi bo'lgan bu yodgorlik o'sha davr xalqlarining tilini o'rganishimizda yakkayu yagona yodgorlik hisoblanadi. Keyinchalik VII-VIII asrlarda Farg'onada to'rtburchak shaklidagi teshikka ega bo'lgan So'g'd yozuvi tushirilgan tangalar chiqarilgan¹.

Toxariston. Hozirgi Shimoliy Afg'oniston, O'zbekiston va Tojikistonning janubiy rayonlarida joylashgan bu ilk o'rta asr o'lkasida tangalar, xususan, kumush tangalar zarb qilish Sosoniylarning kuchli ta'siri ostida edi. Bu yerda sosoniylarning turli – tuman tangalari tarqalishi Peroz (Firuz) va Xusrav I Anushirvonlarning mahalliy tangalari paydo bo'lishiga olib keldi. Bu xil tangalarda qisqa – qisqa baqtriya, ba'zan so'g'd yozuvlaridan iborat nadchekanlar – tavqi' (ya'ni tamg'a ramzi, raqamlar va harflar), xilma – xil bosh kiyimlar qiygan hukmdorlarning yon tomonidan olingan minniatyura suratlari, hatto hayvonlar tasvirlari diqqatga sazovordir.

Qadimgi Surxondaryo havzasida joylashgan Chag'onyon viloyati kumush tangalarining nadchekanlari ancha maroqlidir. Ularni diqqat bilan tadqiq etish natijasida Chag'aniyon Baqtriyaga qarashli bo'lib, bu yerda baqtriya yozuvi amalda qo'llanilgan ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari, eramizning VI – VII

¹ Ernazarova.T, Kochnev.B. Tangalar o'tmish darakchilari. T. "Fan" . 1977. 12 – bet.

asrlarida hokimiyat boshida turgan Chag'וניyon hokimlarining butun bir sulolasi aniqlandi.

Chag'וניyon viloyatida o'ngida hokim va malika tasviri tushirilgan yupqa mis tangalar ham zarb etilardi. Ular Choch va So'g'd tangalariga o'xshab ketardi-yu, ammo tasvirlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turardi. Rasmi albomda keltirilgan o'sha tangalardan biri g'oyat antiqa bo'lib, bunday xil tanga dunyodagi boshqa hech bir muzeyda topilmaydi. Mazkur tanga boshqalaridan Baqtriya tilidagi kursivli so'zlari borligi bilan ajralib turadi, yozuvning ma'nosi hali hamon aniqlanmagan.

Taxminan shu davrning o'zida Chag'וניyonga qo'shni bo'lmish termizshohlarning chog'roq saltanatida g'aroyib shaklli tangalar zarb etila boshlanadi. Ularning ba'zi birlari o'ta skifat (yong'oq po'chog'i) shaklida bo'lib, boshqalari yassiroq, o'ngida qanotli chambar kiygan hukmdor siymosi, terisida tang'a tasvirli, yozuvlari yo'q tangalar edi.

Sosoniylar davlati tarkibiga kirgan, O'rta Osiyoning g'arbiy – janubida joylashgan Marg'iyona va Shimoliy Xurosonda bu davrda hali tanglar zarb etilmasdi. Marg'iyonaning bosh shahri Marvda (hozirgi Bayram – ali atrofida) sosoniylar tangalariga taqlidan zarb etilgan tanglar chiqarishardi. Hozirda bu tangalardan bir nechasi shu hududda topilgan.

Eramizning 651 yili Marvni arablar bosib olib, uni Movarounnahrğa yurishlarida o'zlarining tayanch nuqtasiga aylantirishdi. Eramizning VII asrining ikkinchi yarmida Xurosonning arab voliylari Movarounnahrğa bir necha marta bosqinchilik hujumi qilishdi, taxminan yuz yil o'tgandan so'ng arablar butun O'rta Osiyoni bosib olib, uni Abbosiylar xalifaligi tarkibiga qo'shdilar. Arablar O'rta Osiyoga islom dini, arab tili va yozuvlarini olib keldilar.

Arablar zarb etgan tangalarning tashqi ko'rinishi ham butunlay o'zgarib ketdi. Agar arablar kelgan dastlabki davrlarda tangalarda hali an'anaviy tasvirlar saqlanib, yangilik qisqacha arab yozuvi bilan berilgan bo'lsa, keyinchalik ko'pincha kufa usuli bilan yozilgan va naqqoshlik usulida

bajarilgan bir turdagi xalifalik tangalari joriy etildi. Birinchi arab tangalari bo'lmish fels va drhamlar eramizning VII asri o'rtalari va ikkinchi yarmida O'rta Osiyoning Axsikent, Buxoro, Samarqand, Kesh shaharlarida zarb etila boshlandi.

Asta-sekin bu erlarda ham umumxalifalik tangalari dirham, ful'slar zarb qilina boshlagan. VIII-IX asrlarda Buxoro, Samarqand, Shoshda shunday tangalar zarb qilingan. Bundan tashqari vaqti - vaqti bilan tangalar zarb qiladigan shaharlar ham bo'lgan. Mas,; *Muaskar ash-shos (Shosh qal`asi), o`sha davrdagi Farg`ona poytaxti Axsikent shunday shaharlardan hisoblanadi.*¹ Mazkur hududlarda tangalar faqat hukumdor farmoniga asosan zarb qilingan.

Movorounnahr xalifalikdan ajralib chiqqandan keyin Hirot viloyatidan kelib chiqqan Toxir ibn Husayn (821-873) Xuroson noibi etib tayinlanadi va u Toxiriylar sulolasiga asos soladi. U Bag'dod xalifaligiga tobe bo'lib ichki siyosatda mustaqil edi. Toxiriylarga tobe bo'lgan Movorounnahr noibi birinchisi somoniylardan edi.

Toxiriylar tangashunoslik sohasida dastlab dirxam va mis tangalar zarb qilganlar. Abdulla ibn Toxir hukmronligidan boshlab, oltin dinorlar zarb qilingan. 15 dan ortiq zarbxonalar bo'lib, vaqti - vaqti bilan tangalar zarb qilingan. Movorounnahrning Samarqand, Buxoro, Shosh, Madinai ash-Shosh shaharlarida, keyinchalik Xorazm zarbxonalarida tangalar zarb qilingan. Umumiy ko'rinishi husnixat yozuvlarni joylashishi bo'yicha Toxiriylar davlatida zarb qilingan tangalar umumxalifalik tangalaridan farq qilardi. Toxiriylar taxtdan tushganlaridan keyin Somoniylar mustaqillikka erishganlar.

Demak, o'rta asr boshlari davriga kelib, O'rta Osiyo hududlarida tangalarning behisob va xilma – xil turlari muomalaga kiritilgan. Shu davrlarda zarb qilingan tangalar, O'rta Osiyo xalqlarini yuksak madaniyatga ega ekanligini birinchi navbatda tovar pul munosabatlarini gullab-yashnaganligidan dalolat beradi.

¹ Isoqboyev Alisher Ahmadjonovich. Numizmatika. /Elektron – o`quv manba/ GDU. 2008. 43- bet

2. X-XII asrlarda Movarounnahr tangalari va uning Yevropa davlatlari bilan o`zaro aloqalaridagi o`rni.

Ettinchi asrdan boshlangan arablar istilosi Turkistonni ham o`z domiga tortdi. Bu ijtimoiy hayotning hamma sohalariga ta`sir ko`rsatish bilan bir qatorda tangasozlik sohasida ham muhim bosqich bo`ldi. Arablar xalifaligi barpo qilingan dastlabki yillarda Vizantiya va Somoniylar davrida zarb qilingan tangalar savdo muomalasida ishlatilgan. Shundan so`ng xalifalik o`sha davr tangalarini chiqarishni davom ettirgan. Lekin tangalardagi Vizantiya imperatori yoki Somoniylar hukmdorining tasviri arab yozuvi bilan zarb qilingan.

Ettinchi asrning so`ngida Abdumalik Umaviy pul islohoti o`tkazib, musulmon tangasini zarb qilishga asos soldi. Shundan e`tiboran tangalar sof epigrafik, ya`ni ularda faqat yozuvlar joylashtiriladigan bo`ldi. Bu davrda zarb etilgan yangi tangalar har ikki tomonida ham tasvirlarni yo`qligi bilan oldingi tangalardan ajralib turar edi. Asta-sekin yozuvlar bir tartibda yozila boshlandi. Tanganing old tomoniga "**Lo iloha illolloh**", orqa tomoniga esa "**Muhammad ollohning rasuli**" degan yozuvlar bitilgan. Aylanma yozuvlar ko`proq suralaridan iborat. Shunisi muhimki, tanganing old tomonida tanganing nomi, zarbxona nomi xijriy hisob bo`yicha tanganing zarb etilgan yili keltirilgan.

Xalifalikda oltindan, kumushdan, misdan tangalar zarb qilingan ularning nomlanishi metalga bog`liq edi. Oltin tangalar – **dinor**, kumush tangalar – **dirxam**, mis tangalar - **ful's** deb atalgan.

Ilk musulmon tangalari ismsiz bo`lgan. Keyinroq xalifalarning, noiblarning va hokazolarning ismlari paydo bo`ladi. Musulmon tangalardagi yozuvlar ko`fiy usulida yozilganligidan VIII - IX asrlardagi tangalar ko`pincha kufiy tangalar deb yuritilgan. Dinor va dirhamlarni faqat dastlabki vaqtlarda xalifalikkina zarb qilish huquqiga ega bo`lgan. Mis tangani esa vorislar, amirlar tanga chetiga uz nomlarini yozdirib zarb qilishlari mumkin edi. Oltin tanga tashki savdo uchun zarb qilingan edi. Xalifalik savdosida kumush tangalar dirxamlar pul muomalasini asosini tashkil etgan. Ular xalifalik va uning xalqaro savdosini etarli darajada ta`minlaganlar.

Movorounnahrda arablar istilosidan keyingi dastlabki vaqtlarda umumxalifa tangalari bilan bir qatorda mahalliy eski tangalar ham muomalada bo'lgan va arablar o'z noiblarining nomlari bilan arab yozuvida shunday tangalarni zarb qilganlar.

O'rta Osiyo xalqlarining arab hukmronlariga qarshi uzluksiz kurashi, g'alayonlari bu viloyatlarni faqatgina kuch bilan ushlab turish mumkin emasligini ko'rsatardi. Xalifalikning Sharqiy viloyatlarni boshqarishga mahalliy feodallar jalb qilindi. Ammo viloyatlarning mahalliy feodallar tomonidan boshqarilishi markaziy hokimiyatni mustahkamlashga emas, aksincha, asta – sekin uning kuchsizlanishiga, keyinchalik Movarounnahrning xalifalikdan ajralib chiqishiga olib keldi. 821 yili Hirot viloyatidan kelib chiqqan Tohir ibn Xusayn (821 – 873) Xuroson noibi etib tayinlandi va u Tohiriylar sulolasiga asos soldi.

Tohiriylar Bag'dod xalifaligiga tobe bo'lib, xalifalik xazinasiga ko'plab soliqlar to'lab tursalar ham, ichki siyosatda yetarli darajada mustaqil edilar.

Tohiriylarga tobe bo'lgan Movarounnahrning noibi birinchi Somoniylar edi. Ularning asoschisi Somonxudot ayrim ma'lumotlarga qaraganda esa, Termiz yoki Balzdan bo'lgan aslida. Uning nevaralari – Nuh, Ahmad va Yahyo xalifa Mamunga ko'rsatgan xizmatlari uchun Movarounnahrning turli viloyatlariga hokim etib tayinlanadilar. Tabiiyki, xalifalikning chekka o'lkalariga joylashgan Somoniylar mustaqillikka erishishga harakat qilganlar. Ular Tohiriylar sulolasi taxtdan tushirilgandan keyingina mustaqillikka ega bo'lganlar. Ular Somonxudotning chevarasi Ismoil ibn Ahmad hukmronlik qilgan vaqtda mustaqillikka erishdilar. Ismoil ibn Ahmad qisqa muddatda Xuroson, Sharqiy va Shimoliy Eronni o'ziga bo'ysundirdi. Somoniylar davlati X asrning oxirigacha hukmronlik qildi.

Tohiriylar dastlab dirham va mis tangalar, Abdulla ibn Tohir hukmronligidan boshlab oltin dinorlar zarb qilganlar. 15 dan ortiq zarbxonalar bo'lsa ham ular vaqti – vaqti bilan tanga zarb qilganlar. Movarounnahrning Samarqand, Buxoro, Shosh, Madinai ash-Shosh shaharlarida, keyinchalik Xorazm

zarbxonasida tangalar zarb qilingan. Umumiy ko'rinishi, husni xat, yozuvlarning joylashishi bo'yicha Tohiriylar davrida zarb qilingan tangalar umumxalifalik tangalaridan farq qilardi.¹

Birinchi somoniylar faqat kumush tanga zarb qilish huquqiga ega bo'lganlar. Ular zarb qilgan mis tangalar – **fel'slar** tashqi ko'rinishi bo'yicha yumaloqqa yaqin, xatlari xunuk bo'lgan. Bunga hech ajablanmasa bo'ladi. Chunki, Samarqand zarbxonasining bu boradagi dastlabki qadamlari edi.

Tohiriylar sulolasining ag'darilishi bilan Movarounnahr mustaqilligining ramzi sifatida Somoniylarning birinchi dirhami – kumush tangasi zarb qilinadi. Ismoil ibn Ahmad davrida kumush tangalar ko'plab chiqariladi. Keyinchalik oltin tangalar paydo bo'la boshlaydi.

Oltin tangalarga nisbatan a'lo sifatli kumushdan ko'plab zarb qilingan tangalar mamlakat tashqarisiga ham chiqib ketgan. Ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlarining X asrda Sharqiy Yevropa, shu jumladan, Rossiya bilan savdo – sotiq ishlari juda rivojlangan. U yerdan qunduz, qahrabo, g'alla, mum, asal, teri singari narsalab keltirilib, O'rta Osiyodan qator mahsulotlar bilan birga ko'plab kumush tangalar yuborilgan. Manna shuning uchun Boltiqbo'yi g'arbiy hududlarida Somoniylarning ko'plab kumush tangalari xazinalari topilmoqda. Topilgan eng ko'p kumush tangalar mingga yaqin bo'lib, ularning og'irligi bir necha o'n kilogrammni tashkil etadi. Kumush tangalar Skandinaviya va Islandiya mamlakatlarigacha yetib borgan. Boltiq dengizidagi Gotland orolida Somoniylarning kumush tangasi shunchalik ko'p topilganki, hatto u yerda xazina qidiruvchi degan kasb ham bo'lgan. Ammo shu ko'p sonli topilmalar IX – X asrlar davomida musulmon Sharqidan, xususan O'rta Osiyodan Yevropaga «oqib» ketgan kumush tangalar haqida juda ham oz tasavvur beradi. Axir ularning ozgina qismi xazina sifatida yerga tushgan. Ko'pgina dirhamlar eritilib, ulardan turli xil bezaklar ishlangan.²

¹ Ernazarova.T, Kochnev.B. Tangalar o'tmish darakchilari. T. "Fan"1977. 16 - bet

² Shu yerda: 17- bet

Shu bilan birga O'rta Osiyoda somoniylar davrida zarb qilingan dirhamlar juda ham kam topiladi. Bu tabiiy bir hol. Chunki yuqorida aytib o'tganimizdek, dirhamlarning ko'pi chet ellarga «oqib» ketgan edi.

Somoniylar tomonidan zarb qilingan tangalardagi yozuvlar xuddi xalifalik davrida zarb qilingan tangalardek edi. To'g'ri, mis yoki kumush tangalarning bir tomonida bir yoki ikki qator, ahyon – ahyonda esa uch qator yozuvlar uchraydi. Dirhamlarda faqat Somoniylar noibining ismi yozilibgina qolmay (garchand ular xalifalikda butunlay mustaqil holda ajralib chiqqanliklariga qarmay), xalifalarning ismlari ham yozilgan.

Somoniylar davridagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki. Tangashunoslik sohasida ham shu davrlardan boshlab qalbakilashtirish masalasi bu davrda ham tangalarni har vaqt qo'lbola uskuna shtampelda zarb etishavergan. Zarbxona uskunasi ular qo'lga tushib qolgan. Tangalarni qalbakilashtirish asrlar davomida mo'may daromad keltirgan, shuning uchun ular o'limdan ham qo'rqmay faoliyatini davom ettirganlar. Bu esa tanga chaqalarning qadri yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Umuman, IX – X asr O'rta Osiyo tarixi mukammal o'rganilgan. Chunki bu davrga oid ko'plab yozma manbalar saqlangan. Somoniylar davrida zarb qilingan tangalar Yevropada ko'plab topilganligi uchun yaxshi o'rganilgan. Lekin ular o'sha davr siyosiy hayoti va tarixiga yozma manbalardagichalik ko'p ma'lumot qo'sha olmaydi. Lekin kumush tangalar qariyb bir yuz ellik yil o'rganilishiga qarmay hali ham numizmatika fani uchun yaxshi material bermoqda. Somoniylarning birinchi marta mis tangalar zarb qilish huquqiga ega bo'lganligini eslatib o'tsak, masala ayon bo'ladi. Chunki, ular zarb qilgan tangalarni o'rganish o'sha davr tarixchilari yozib qoldirmagan Somoniylar davlatining tashkil topish tarixining ayrim sahifalarini to'ldirishga yoradm beradi. Yana bir misol. Yaqin – yaqinlargacha Somoniylar davlati mustahkam, yagona va markazlashgan davlat bo'lgan deb hisoblanib kelinardi. Farg'onada zarb qilingan mis tangalarni o'rganish mazkur yirik viloyat uzoq davrlar mobaynida yarim mustaqil davlat bo'lib kelganligini ko'rsatadi. Shu dalilni

hisobga olib, biz Somoniylar davlati qo'lyozma manbalarida ko'rsatilganidek qudratli davlat bo'lmagan degan xulosaga kelamiz.

Somoniylar davrida zarb qilingan mis tangalar tashqi ko'rinishi bilan ham diqqatga sazovordir. Mis tanga eng ko'p tarqalgan, ko'p muomalada bo'ladigan tanga bo'lishiga qarmay u dirham va dinorlar singari puxta ishlangan. Ulardagi yozuvlar juda ham chiroyli. Ayrim miss tangalar, ayniqsa Buxoroda zarb qilingan mis tangalar shunchalik chiroylik va puxta ishlanganki, hozir ham kishini hayratga soladi.

O'sha davrlarda 30 dan ortiq zarbxonalar bo'lsa ham lekin ular vaqti – vaqti bilan ishlagan. Ayrimlari qisqa muddat ishlab keyinchalik yopilgan. Buxoro, Samarqand va Shosh asosiy zarbxona hisoblangan.¹ Bulardan tashqari Andijarog' (Vaxsh va Panj orasidagi viloyat), Axsiket, Forob (O'rta Sirdaryoda), Binket (Toshkent), Zomin, Isfijob (Chimkent yaqinida), Kuba (hozirgi Quva), Marg'inon (hozirgi Marg'ilon), Nasrobod (Farg'ona vodiysida), Naukat (Toshkent viloyatida), Sug'd, Termiz, Tunket (Ohangaron vodiysida), Uzgend (hozirgi O'zgant), Ushrushona, Farg'ona Xo'ttal singari joylarda zarbxonalar bo'lganligi fanga ma'lum. Yuqorida qayd qilingan zarbxonalarning (14) ko'pchiligi O'zbekiston hudidida bo'lgan. Hali shu vaqtgacha ma'lum bo'lmagan zarbxonalarning ochilishi ehtimoldan holi emas, albatta.

Somoniylar hukmronligining oxirgi davrlarida, ayniqsa X asrning ikkinchi yarmiga kelib mintaqaning Ettisuv qismida shakllangan makondan ko'ra ham kengroq miqyosda siyosiy faoliyat ko'rsatish imkoni va qudratiga ega bo'lgan yangi siyosiy kuch maydonga chiqadi. Biz ularni Qoraxoniylar nomi ostida bilamiz. "Qaroxon" atamasi xususida "xon" ma'lum tushuncha, ya'ni hukmdor "Qora"ning asli "Qapo" bir necha ma'noda qo'llanilishi ta'kidlangan holda, biz ko'rayotgan misolda "Buyuk", "Ulug'" tushunchasini beradi.

¹ Ernazarova.T, Kochnev.B. Tangalar o'tmish darakchilari. T. "Fan"1977. 19 - bet

Shunday qilib X asrning ikkinchi yarmida qoraxoniylar sharqiy yo`nalishda Balxash ko'li - Chergen daryosigacha (*Sharqiy Turkiston*) bo'lgan erlarni bo'sundirishga muvaffaq bo'lib, g'arbiy yo`nalishda Isfijob, O'zgan, Murg'ob daryosi quyi oqimlarigacha bo'lgan hududni o'z ta'sir doirasiga kiritib oladi. 1005 yili Somoniylar siyosiy sahnadan butunlay tushib ketdi, shu vaqtdan boshlab Qoraxoniylar endi Buxoro, Samarqand umuman Amularyogacha bo'lgan hududlarni boshqara boshladilar. Boshqacha aytganda, XI asr boshlarida Turkiston bir qancha siyosiy kuchlar tomonidan idora etilgan. Sharqiy Turkiston, Toshkent, Isfijob, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Chag'oniyon, Xuttalon viloyatlari **qoraxoniylar**, Amularyoning chap sohilidagi yerlar to G'aznagacha Xuroson, Seyiston viloyatlari **g'aznaviylar**, Xorazm esa **Xorazmshohlar**, Orol dengizidan sharq va shimoldagi yerlar **o'g'izlar ittifoqi** tomonidan boshqarilar, chegaralar muntazam qo`riqlanar edi.

Qoraxoniylar davri iqtisodiy hayotiga e'tibor bersak, dehqonchilik qishloq xo'jalik ishlarini bir maromda olib borilishi, sun'iy sug'orish inshootlarini bunyod qilinishi, savdo-sotiq va hunarmandchilik sohasida taxsinga sazovor ishlar qilingan.

Yuqoridagi ishlarni inobatga olgan holda tangashunoslik sohasida ham Qoraxoniylar taxsinga sazovor ishlarni amalga oshirishgan. Qoraxoniylar tangasi somoniylar tangasidan yozuvining nafisligi va umuman bezaklarning xilma-xilligi hamda sifatliyligi bilan ajralib turadi. Kamdan-kam hollarda fil, yo'lbars, arslon, qoplon, quyon, qushlar, hatto baliq tasvirlangan. Qoraxoniylar mavjudodni tasvirlashni islom dinida ma`qul ko'rilmassligidan yaxshi xabardor bo'lganliklari uchun mavjudod rasmlari ichki bozorda ishlatish uchun chiqariladigan chaqalardagina berilgan.¹

Qoraxoniylar mis, kumush tangalar, XII asrning O'rtalariga kelib oltin tangalar ham zarb qilganlar. Ayni vaqtda Qoraxoniylar davridan 40 dan ortiq zarbxonalar fanga ma`lum. Masalan, *Axsikent*, *Bolasog'un*, *Farob*, *Barsxon* (*Issiqko'l janubida*) va boshqalar. Shuni takidlash joizki bir zarbxona bir necha

¹ Isoqboyev Alisher Ahmadjonovich. Numizmatika. /Elektron -o`quv manba/ GDU. 2008. 41-bet. Internet ma`lumotlari.

nomlarda tanga zarb qilgan bo'lishi mumkin. Masalan, *Ko'zo'rda* va *Bolasog'un nomi bitta shaharga tegishli*. Lekin Somoniylar davriga nisbatan Movorounnahrda zarbxonalarni ko'payganligi shubhasiz, zarbxonalar uncha katta bo'lmagan ularni tashkil etish uchun ko'p mablag' sarf etish talab qilinmagan.

Qoraxoniylar davlatini salmog'i ular zarb etgan XI asrning kumush tangalaridagi yozuvlar ma'nosida ham aks etgan. XI asr kumush tangalarida bu davrga kelib, musulmonlar dunyosining diniy boshlig'i Bag'dod xalifasining nomi butun Qoraxoniylar davlatining hokimi, shuningdek uning vassali shahar yoki viloyat hokimining va tanga zarb qilingan joy ko'rsatilgan. Mis tangalardagi yozuvlar kumush tangalardagi yozuvlardan farq qiladi. Ularda xalifaning nomi ko'rsatilmay, faqat tanga zarb qilingan shahar yoki viloyat hokimining nomi, tanga zarb qilingan joy ko'rsatilgan.

Qoraxoniylar davrida zarb qilingan tangalardagi yozuvlarning aksariyati arab alifbosida bo'lib, onda-sonda uyg'ur so'zlari ham uchraydi. Ko'pchilik hollarda Nasr, Yusuf singari hokimlarning nomlari uyg'ur tilida yoziladi. Tangalarning tashqi ko'rinishida ham ayrim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Agar somoniylar davrida zarb qilingan tangalardagi yozuvlar aylanasi bitilgan bo'lsa, qoraxoniylar turtburchak shaklida yozganlar.

Qoraxoniylar asosan kumush tangalardan tashkil topgan tangalar sistemasini ham somoniylardan meros qilib oldilar. X asr oxiri XI asr boshlarida Qoraxoniylarning oddiy kumush pullari sof kumushdan tayyorlanib xalqaro savdoda ishlatilgan. XI asrning ikkinchi o'n yilliklariga kelib kumush tangalarni sifati o'zgaradi. Kumush miqdori kamayib uning o'rniga mis qo'rg'oshin ishlatila boshlandi.¹ XI asr O'rtalariga kelib Ettisuv va Farg'onada tarkibida umuman kumush bo'lmagan dirham tangalar zarb qilingan va oq tangaga "dirham" - ya'ni kumush tanga deb yozilgan.

Fanda "**kumush inqirozi**" deb atalgan bu hodisa XI asrda butun musulmon sharqida qayd qilingan. Qoraxoniylar davlatida "kumush inqirozi"ni sodir

¹ Федоров Г. А - Давыдов. Монеты рассказывают. М. «Педагогика». 1990. стр- 50.

bo'lishiga o'zaro kurashlar sabab bo'lgan, undagi ko'plab xarajatlar sifatsiz dirhamlarni chiqarishga sabab bo'lgan, tanga zarb qilishdagi bunday firibgarlik, aholini kumush va mis tangalarga bo'lgan ishonchini yo'qotgan.

Shuning uchun, XI asr oxiri va XII asrda Qoraxoniylar davlatining shimoliy viloyatlarida tanga umuman zarb qilinmadi. Movorounnahrda tanga zarb qilish ozayib ketdi. Savdo bitimlarida boshqa sulolalardan keltirilgan dinorlar - oltin tangalardan foydalanganlar. Movorounnahrda zarb qilingan tangalarda faqat Qoraxoniylar nomi yozilibgina qolmay, saljuqiylar sulolasiga mansub bo'lgan sultonlarning nomlari ham bitilgan. Tangalar asosan Samarqand, Buxoro, O'zgan zarbxonalarida chiqarilgan. XII asrning 60-yillariga kelib, tanga zarb etish ishlari butunlay o'zgardi. O'zgan va Samarqandda kumush suvi yugurtirilgan dirhamlarni ko'plab zarb qila boshlashiga yo'l qo'yiladi. By bilan bir qatorda Samarqand va Buxoroda oltin dinorlar zarb etila boshlandi. Kumush suvi yugurtirilgan dirhamlar kundalik savdoga bo'lgan talabni qondiradigan bo'lsa, oltin tangalardan savdo bitimida xalqaro savdoda ham foydalanilgan. Haqiqiy kumush tangalar bo'lmaganligi oltin tangalar, yirik pul hisoblanganligi uchun ularni mayda-mayda bo'laklarga bo'lib savdo qilishgan.

XII asrning ikkinchi yarmi va XIII asrdagi Qoraxoniylar sulolasi tomonidan zarb qilingan tangalar, X asr oxiri va XI asrda zarb qidingan tangalardan tubdan farq qiladi. Birinchidan bu tangalar vaqt o'tishi bilan yiriklashib borgan. Agar X-XI asr tangalarining diametri 2 - 2,5 sm. bo'lsa. XII asrning 60-70 yillarida kumush suvi yuritib zarb qilingan dirhamlarning diametri 3 sm.. XI asr boshlarida esa 4 sm. bo'lgan. Tangalardagi yozuvlarning joylashtirilishi, o'rni va ularning ma'nosi ham o'zgardi.¹

O'zbekiston hududida XI-XII asrlarda muomalada bo'lgan tangalarni asosiy qismi Qoraxoniylar davrida zarb qilingan tangalarni tashkil qiladi. Lekin O'zbekistonning ba'zi janubiy tumanlari, ya'ni Termizda g'aznaviylar tomonidan zarb qilingan tangalar muomalada bo'lgan.

¹ Ernazarova.T, Kochnev.B. Tangalar o'tmish darakchilari. T. "Fan"1977. 23 - bet

Xulosa

Istiqlool yillarida O'zbekiston hayotining barcha jabhalarida tub islohotlar o'tkazilmoqda, yangilanish jarayoni bormoqda. Ayniqsa, bunday tub o'zgarishlar tarixshunoslikda yaqqol sezilmoqda.

Bu tarix fanlarining mazmuni va mohiyatida yangilanishda, tarixshunoslikda shakllanayotgan xolislik va adolat tamoyillari asosida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu o'zgarishlar jarayonida, yordamchi tarix fanlari sirasiga kiritilgan numizmatika ham mustaqil fan sifatidagi o'z maqomga ega bo'ldi.

Numizmatika shunchaki tangalar yoki pul birliklari haqida ma'lumot beruvchi soha bo'libgina qolmay, balki turli mamlakatlarning muayyan tarixiy davrdagi iqtisodiy - siyosiy hayotini chuqur tahlil qilishga zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan fandir.

Mazkur fan Vatanimiz tarixida mavjud bo'lgan davlatlarning ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy hayoti haqida bizga to'la ma'lumot berishda muhim ahamiyatga egadir. Chunki ma'lum bir davrda zarb etilgan tangalar shu davlatning iqtisodiy qudratidan dalolat beradi. Numizmatika fanini o'rganish orqali talabalar Vatanimiz hududida mavjud bo'lgan davlatlarning o'z davrida yuritgan iqtisodiy siyosiy va madaniy hayotidan ham voqif bo'ladilar.

Numuzmatika tushunchasiga yana qog'oz pullarni o'rgatish (bonistika) va medal', jeton, order hamda znachoklarni o'rganish (faleristika) ham kiradi. Metall pullar paydo bo'lganida qadar pul vazifasini har - xil tovarlar: hayvonlar, taqinchoqlar, metall qurollari va kiymalar bajargan. Tanga tovar ayrboshlashda ekvivalet rolini uynagan boshqa buyumlardan farq qilib universal to'lov vositasi rolini egallaydi. Tanga chiqarish faqat hukumdorga xos bo'lib, bu huquqni buzish eng og'ir jinoyat hisoblangan.

So'ngi yillarda O'rta Osiyoda va qo'shni hududlarda olib borilgan tarixiy-arxealogik tadqiqotlar bu mintaqada Qadimgi Sarq va Yevropa svilisatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida o'ziga xos o'rin tutganligini ko'rsatuvchi ashyoviy dalillarni yuzaga chiqardi. Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, hozirgi O'zbekiston hududining ulkan Yevroosiyo

mintaqasi markazida, muhim tranzit yo`lida kesishgan chorrahasida joylashganligi tarixan belgilangan bo`lib¹, bu vatanimizni kishilik tarixining ilk bosqichlarida-yoq Sharq va G`arb o`zaro muloqotiga kirishadigan joy sifatidagi ahamiyatini belgilab berdi. Shu tufayli ham vatanimiz tarixini jahon sivilisatsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida o`rganish dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo`yilmoqda.

Turli hududlar o`rtasidagi o`zaro mahsulot ayriboshlash jarayonlari qadimgi O`rta Osiyo hududi uchun ham xosdir. Tovar pul munosabatlarining rivojlanishi, bosqinlar natijasida vatanimiz hududlarida ham tanga pullar kirib keladi yoki zarb etish yo`lga qo`yiladi. Dastlabki davrda Rim, Vizantiya, Xitoy tangalari ishlatib kelingan bo`lsa, mill. avv. III asrdan boshlab, o`z tangalarimiz vujudga keldi va takomillashib bordi. Dastlab, Grek Baqriya tangalari ta`sirida Kushon, Turk xoqonligi davrida Vizzantiya va Xitoy ta`sirida pullar takomillashadi va o`zgarib boradi.

O`rta Osiyo hududida zarb etilgan pul tangalarning xalqaro maydonda ishlatilishi yuqorida aytilgan fikrimizni tasdiqlaydi. Chunonchi, IX-XII asrlarda Samoniylar va Qoraxoniylar davlatlarida zarb etilgan tanga pullarning Yevropa, Ckandinaviya, Islandiya, Boltiq bo`yi, Rossiya, Vengriya, Xitoy va boshqa hududlarda ko`plab topilishi buni yaqqol tasdiqlaydi. Turli xom ashyo va ishlab chiqarish, savdo munosabatlari turli hududlar, birinchi galda yaqin qo`shni davlatlar bilan o`zaro xo`jalik munosabatlari mustahkamlanib borishiga va savdo aloqa yo`llarini kengayishiga olib kelgan. Bu jaronda vatanimiz hududida zarb etilgan tangalar ham jahon sivilisatsiyasining rivojlanishiga turtki bo`lgan

Bugunda tangalarga xalq madaniyati tarixiga oid muhim yodgorlik deb qaralmoqda. Tangani jajji yozma manba desa bo`ladi. To`g`ri u qo`lyozma singani tavsilotli va keng ma`lumot beruvchi manba emas, lekin xolislikka kelganda tanganing oldiga tushadigani yo`q. Masalaning mohiyati shundaki,

¹ Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. "Ozbekiston", 1997. 12-bet.

qo'lyozmalar asrlar davomida boshqalar tomonidan o'zgartirilar, qayta-qayta ko'chirilib yozdirilar, ayrim so'zlar yoki jumlalarining ma'nosi aslidan uzoqlashib ketardi. Tangalarga zarb etilgan yozuvlar esa qanday bo'lsa, sundayligicha saqlanib qolaverardi. Demak, tangalar o'tmishni o'rganuvchi muhim manbadir.

Biz bitiruv malakaviy ishimizda numizmatika fanining bugungi erishgan yutuqlari, ayniqsa vatanimiz tarixini o'rganishdagi ahamiyati haqida o'z fikr mulohazalarimizni bayon etdik. Shuningdek, "Numizmatika" fainini o'rganishda interaktiv usullardan foydalanish haqidagi ilg'or fikrlarni o'rta tashladik. Ma'lumki, O'zbekiston jamiyati jadallik bilan taraqqiy etib, iqtisodiy va siyosiy mavqei kundan-kunga ortib bormoqda. "Ta'lim to'g'ri"da"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va Davlat standartlariga javob beruvchi "Ta'lim texnologiyasi"ning ishlab chiqilgani va tobora o'quv jarayoniga kirib borayotganligi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Bugungi kunda ta'lim va tarbiyaning sifati esa, o'qituvchi va pedagoglarimiz tomonidan shakllanib kelayotgan milliy pedagogikaning nazariy asoslarini nechog'lik o'rganib, o'quv jarayonida zamonga mos bo'lgan ta'lim usullaridan qanchalik to'g'ri foydalana olayotganligiga chambarchas bog'liq ekanligi, shubhasizdir. Ayniqsa, tarix fanlarini o'qitishda uning usullaridan foydalanishga qiziqish kuchaymoqda. Tarix fanlarini o'qitilishida jumladan, interfaol usullardan foydalanish dars jarayonini samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, bu usulning imkoniyatlari shunchalik ko'p va ahamiyatliki, buni zamonamizning eng yangi pedagogik usuli desak, xato qilmagan bo'lamiz. Mazkur usul o'zining nechog'lik dars samaradorligini oshirishini amalda tasdlamoqda, o'qituvchi metodlaridan biri sifatida uning pedagogik amaliy faoliyati mezoniga aylanib bormoqda.. Zero, o'qitish jarayonida turli usul va metodlar bor, binobarin ushbu usul ayniqsa, tarix darslarini o'rganishda amaliy ahamiyat kasb etadi deb bilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov «Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q». T. «Sharq». 1998.
2. Karimov.I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.T. "O'zbekiston" 1997.324 b.
3. Karimov. I.A.Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. T. "Ma'naviyat", 2008 174- bet
4. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. T.2000.
5. Ayupova.F. Qadimiy tangalar. «Moziydan sado» 1-2 sonlar. 2000y.
6. Aminjonova I E. Qadimiy yodgorliklar qissasi. - T., 1968.
7. Беляков.А.С. Нумизматика. Введение в специальную историческую дисциплины. –М. MGU. 1990.
8. Воронов Ю. П. Страницы истории денег. Новосибирск. «Наука». 1986
9. Гусарова.Т.П. Введение в специальные исторические дисциплины. -М. 1990.
10. Давидович.Е.А. История денежного обращения Средней Азии. -М.1983.
11. Ernazarova.T, Kochnev.B. Tangalar o'tmish darakchilari. T. "Fan" 1977.
12. Ziyomammedov Bo`ri. Ta`lim texnologiyalari. Toshkent. 2012.
13. Ziyomammedov B, Tojiyev M. Pedagogik texnologiya: zamonaviy o`zbek milliy modeli. T. Lider-Press, 2009.
14. Pidayev Sh. Tangalar davr ko'zgusi. T. 1984.
15. Kognev.B. O'zbekiston pullari. "Fan va turmush".1995. 5-6 – sonlar.
16. Kabirov J., Sagdullaev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi.-T.: "O'zbekiston", 1990.
17. Кобрин Р Б. Вспомогательные исторические дисциплины. М. 1984
18. Русская нумизматика XI-XX веков. Изд. «Аврора». Л. 1979. стр-5-20..
19. Ртвеладзе Э.В. Древние монеты Средней Азии-Т.: Изд. литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1984. С.182
20. Спасский.И. Г. Русская монетная система. -М., 1962.
21. Sagdullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda.- T.:1993.
22. Лившиц В.А. «Памятники дрейней письменности».-Т.: 1985.
23. Ишанхонов.С. Х. Нумизматическая коллекция, (материалы по истории

Узбекистана) -Т. 1963.

24. История Древнего Мира.-М.: «Наука», 1,3-том, 1982-19, 9.
 25. Фенглер Х., Унгер В. «Словар нумизмата». М. 1982.
 26. Г,А . Федоров - Давидов Г. А . «Монеты – свидетели будущего». М. 1985.
 27. Г,А . Федоров - Давыдов. Монеты рассказывают. М. «Педагогика». 1990. С.110
 28. Федоров М. Н « Нумизматика Средней Азии» «Фурунзе». 1978.
 29. Tuxtiyev «Temur va temuriylar sulolasining tangalari». Toshkent. «Fan». 1992 .
 30. Xasanov X. O'rta Osiyolik geograflar va sayyohlar.-Т.: "O'zbekiston", 1981.
 31. O'zbekiston tarixi. Jurnal. O'z Res. FA. Boboyorov G', Kubatin A. //Garbiy Turk xoqonligi tangalari ikonografiyasiga Vizantiya ta`siri masalasiga doir//. 2008. № 4. 3-10 betlar.
 32. Isoqboyev Alisher Ahmadjonovich. Numizmatika. /Elektron – o`quv manba/ GDU. 2008. 41- bet. Internet ma`lumotlari.
- Ziyomammedov B, Tojiyev M. Pedagogik texnologiya: zamonaviy o`zbek milliy modeli. T. Lider-Press, 2009.

Davlat attestatsiya komissiyasining raisi

I. Navoiy davlat pedagogika instituti

Tarix fakulteti kunduzgi bo'lim__4__kurs “_A_” guruh talabasi O'rinov Dilshod Normurodovichning “O'rta asrlar Yevropa davlatlari numizmatikasini o'rganishda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish” nomli bitiruv malakaviy ishi himoya qilishga yuboriladi.

Reyting qaydnomasidan ko'chirma, bitiruv malakaviy ishi rahbarining xulosasi, kafedraning ishni himoyaga tavsiya etish haqidagi xulosasi, taqrizlar ilova qilinadi.

Fakultet dekani:

dots. Qarshiyev R.

II. Navoiy davlat pedagogika instituti

4 – kurs “A” guruhi talabasi O'rinov Dilshod Normurodovichning “O'rta asrlar Yevropa davlatlari numizmatikasini o'rganishda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish” nomli bitiruv malakaviy ishi kafedraga yig'ilishda muhokama qilingan va Davlat attestatsiya komissiyasida himoyaga tavsiya etiladi.

Kafedra mudiri:

t.f.n. dots R. Rajabov

III. Navoiy davlat pedagogika instituti
«Umumiy tarix» kafedrasining 2013 yil ____ maydagi
№ 13 - majlis qaroridan

Ko'chirma

Qatnashdilar: Kafedraning barcha a'zolari (12 kishi)

Kun tartibida

Bitiruvchi talabalarning bitiruv malakaviy ishi muhokamasi

Eshitildi:

So'zga kafedra mudiri dots.R.Rajabov chiqib, tarix fani bo'yicha tayyorlagan bitiruv malakaviy ishi talabga muvofiq tayyorlanganligi, ilmiy rahbarlar va maktab o'qituvchilaridan taqrizlar ijobiyligini, kerakli hujjatlar rasmiylashtirilganligini ta'kidlab o'tdi.

Bitiruv ishi mavzusi bo'yicha t.f.d G`.Temirov, kat.o'q. F.I.Shirnova o'z fikr - mulohazalarini bildirdilar. Shundan so'ng bitiruvchi O'rinov Dilshod Normurodovichning o'z mavzusi bo'yicha bitiruv ishining dolzarbligi, maqsadini, vazifalari va qilingan ishlardan olingan natijalar bo'yicha xulosa va tavsiyalari haqida so'zlab berdi. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi yuzasidan berilgan savollarga javob berdi.

Majlis qaror qiladi:

Bitiruvchi talabasi O'rinov Dilshod Normurodovichning “O'rta asrlar Yevropa davlatlari numizmatikasini o'rganishda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish” mavzusi bo'yicha:

1. bitiruv malakaviy ishi tugallangan ish deb hisoblansin.
2. bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri:

dots R. Rajabov

IV. Navoiy davlat pedagogika instituti

*«Umumiy tarix» kafedrasining 2012 yil 26 - sentyabr
№ 1 sonli qaroridan*

KO`CHIRMA

Qatnashdilar: kafedraning barcha a'zolari (12 kishi)

Kun tartibi:

2011-2012 o'quv yilida Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti kunduzgi bo'limining talabasi O'rinov Dilshod Normurodovichning bitiruv malakaviy ishi mavzusini tasdiqlash to'g'risida.

Eshitildi:

Kafedra mudiri dots R. Rajabov so'zga chiqib kafedra a'zolarini bitiruv malakaviy ishi mavzusi bilan tanishtirdi va mavzuning dolzarbligi, bugungi kundagi ahamiyatini hisobga olib O'rinov Dilshod Normurodovichning "O'rta asrlar Yevropa davlatlari numizmatikasini o'rganishda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish" nomli bitiruv malakaviy ishi mavzusini tasdiqlash uchun tavsiya qildi. Yig'ilishda dots.S.G'iyosov, f.f.n. Z.Hayitov mavzuning mazmun mohiyati haqida o'z fikr – mulohazalarini bildirdilar.

Majlis qaror qiladi:

1. Tarix fakulteti bitiruvchisi O'rinov Dilshod Normurodovichning "O'rta asrlar Yevropa davlatlari numizmatikasini o'rganishda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish" nomli malakaviy bitiruv ishining mavzusi tasdiqlansin.
2. Ilmiy rahbar etib dots. R.N. Tolibov tayinlansin

Kafedra mudiri:

dots. R. Rajabov

Kabinet mudiri:

I.Navro`zov

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAHOLASH MEZONI

Tarix fakulteti

(fakultet nomi)

Tarix. Jahon tarixi.

(fanning nomi)

O'rinov Dilshod Normurodovich

(Talabaning ismi, sharifi)

HIMOYA VAQTI _____

<i>Mavzuning dolzarbligi</i>	<i>Bajarilgan ishning mustaqillik darajasi</i>	<i>Amaliy ahamiyati</i>	<i>Adabiyotlardan foydalanish darajasi</i>

<i>Ishning rasmiylashtirilish</i>	<i>BMI himoyasi</i>	<i>Umumiy ball</i>	<i>%</i>

DAK raisi: _____

DAK a'zolari: _____

- -

3. NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Tarix fakulteti

Umumiy tarix kafedrası

«T A S D I Q L A Y M A N»

Kafedra mudiri dots.

R.Rajabov _____

«__» _____ 20__ -yil

MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO`YICHA TOPSHIRIQ

Talaba

1. Bitiruv malakaviy ishining
mavzusi _____

_____, 20__ -yil kafedraning _____ sonli majlisida
ma`qullangan.

2. Bitiruv malakaviy ishini bajarish muddati

3. Bitiruv malakaviy ishining topshirish muddati «__» _____
20__ -yil

4. Bitiruv ishning bajarilishiga doir boshlang`ich ma`lumotlar:

A. Mavzu yuzasidan materiallar to`plash

B. Dastlabki olingan materiallarni ishlab chiqish

V. Adabiyotlar majmuasini tuzish

G. Tadqiqot bosqichlari xulosa va takliflar

5. Malakaviy bitiruv ishi bo`yicha o`tkazilish lozim bo`lgan
tadqiqotlar

4. Bitiruv ishi bo`yicha mavzu mundariyasi va maslahatchi o`qituvchilar

№	Mundarija	Maslahatchi o`qituvchi	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1				
2				
3				
4				
5				
6				
7				
8				
9				
10				
11				
12				
13				
14				
15				

5. Bitiruv ishining bajarish rejasi.

№	Bitiruv ishining bosqichlarining nomi	Bajarish muddati	Tekshiruvdan o`tganlik belgisi	
1				
2				
3				
4				
5				
6				
7				
8				
9				
10				
11				

Bitiruv malakaviy ishi rahbari _____
 Topshiriqni bajarishga oldim _____
 Topshiriq berilgan sana « ____ » _____ 2013-yil

- -

«Tasdiqlayman»
«Umumiy tarix» kaf. mud.
dots. R.Rajabov
«29» avgust 2012 y

Tarix yo`nalishi 4 «\_\_» guruh talabasi O`rinov Dilshod Normurodovichning “O`rta asrlar Yevropa davlatlari numizmatikasini o`rganishda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish” nomli bitiruv – malakaviy ishi yuzasidan topshiriq.

№	Topshiriqning mazmuni	Bajarilish muddati	Mas'ul	Izoh
1	Mavzusining taxminiy rejasini tuzish	2.09.2012 15.09. 2012	dots.R.N.Tolibov	
2	Tanlangan mavzu yuzasidan chop etilgan asosiy adabiyotlarni o`rganish	15.09. 2012 25.09. 2012	dots.R.N.Tolibov	
3	Har bir rejaga oid materiallarni turkumlash	26.09. 2012 28.10. 2012	dots.R.N.Tolibov	
4	Bitiruv malakaviy ishning kirish qismi va birinchi rejasini yozish	29.10. 2012 30.12. 2012	dots.R.N.Tolibov	
5	Bitiruv malakaviy ishning ikkinchi rejasini yozib tugallash	2.01. 2013 15.02. 2013	dots.R.N.Tolibov	
6	Bitiruv malakaviy ishning uchinchi rejasini yozish	16.02. 2013 10.03. 2013	dots.R.N.Tolibov	
7	Bitiruv ishining xulosasini tayyorlash va birinchi variantini ilmiy rahbar hukmiga havola etish	11.03. 2013 2.04. 2013	dots.R.N.Tolibov	
8	Bitiruv malakaviy ishning yakuniy variantini tayyorlab kafedra himoya oldi muhokamasiga tavsiya etish	3.04. 2013 1.05. 2013	dots.R.N.Tolibov	

Ilmiy rahbar:

dots. R. N. Tolibov

Bitiruvchi talaba:

O`rinov Dilshod Normurodovich

**O'rinov Dilshod Normurodovichning “O'rta asrlar Yevropa davlatlari
numizmatikasini o'rganishda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish”
mavzusidagi malakaviy bitiruv ishiga yakuniy
XULOSA**

Ta'lim jarayonining rivojlantiruvchi texnologiyalar asosida, yanada aniqrog'i interaktiv usullar asosida tashkil etilishini ta'minlash oily ta'lim tizimida hozirgi kunda dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Sababi ta'lim oluvchilar egallashi shart bo'lgan bilimlarni talabalar o'zlari mustaqil ravishda topishlariga urg'u berish, ya'ni pedagog muayyan soatda ta'lim oluvchilar egallashi shart bo'lgan bilimlarni ularga aytib bera qolmay, bu bilimlarni ular faol fikr yuritib o'zlari topishlariga erishishi lozim.

Shu bois ta'lim texnologiyasini ayniqsa tarix fanlari dars jarayonida qo'llash, mustaqil ravishda qaror qabul qila oladigan, maqsadlarni belgilay oladigan va amalga oshira oladigan, o'z faoliyatni ongli baholay oladigan faol shaxsni shakllantirish muammosi dolzarb bo'lib kelmoqda.

O'rinov Dilshod Normurodovichning mazkur malakaviy ishi shu muamмога qaratilgan bo'lib, ishda mavzuning dolzarbligi ilmiy asoslangan hamda ishning maqsadi, vazifalari, ob'yekti, predmeti, metodlari, metodologik asoslari, ishning tuzilishi ko'rsatilgan. Ya'ni ishning ilmiy apparati taqdim qilingan.

Ishning birinchi bobida, tarix fanlarini o'rganishda ta'lim texnologiyalaridan ayniqsa, “Numizmatika” fanini o'rganishda interaktiv usullardan foydalanish imkoniyatlari, “Antik davr tanga pullari”, “Numizmatika” fanini o'rganishda qo'llash mumkin bo'lgan interaktiv usullar haqida fikr yuritilgan.

Ishning ikkinchi bobida, Vizantiya, Xitoy tanga zarbi an'analarining Turk xoqonligi tangalariga ta'siri o'rganishda interaktiv usulidan foydalanish, Vizantiya, Xitoy tanga zarbi an'analarining Turk xoqonligi tangalariga ta'sirini o'rganishda “Venn diagrammasi” interfaol usulidan foydalanish masalalari yoritilishiga harakat qilingan.

Shuningdek, ish yakunlangan bo'lib, bayon etilgan ilmiy-nazariy fikrlar umumlashtirilgan holda tinglovchi o'z xulosalarini bergan hamda ishning so'ngida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va mavzuaga oid slaydlar keltirilgan.

Umuman olganda, talaba O'rinov Dilshod Normurodovichning tomonidan bajarilgan malakani himoya qilish ishi talab darajasida bajarilgan, yakunlangan ish bo'lib, ishni himoyaga tavsiya etish mumkin.

NDPI “Umumiy tarix”

kafedra

Ilmiy rahbar:

dots. R.N. Tolibov

**O'rinov Dilshod Normurodovichning “O'rta asrlar Yevropa davlatlari
numizmatikasini o'rganishda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish”
mavzusidagi malakaviy bitiruv ishiga
T A Q R I Z**

Ma'lumki, Oliy ta'limning asosiy vazifasi mehnat bozorining uzluksiz ravishda o'sib borayotgan ehtiyojlariga muvofiq shuningdek, mutaxassisning aniq kasbiy malaka darajasiga yuqori talablar qo'yuvchi bozor iqtisodiyotiga o'tilishini hisobga olib, yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Shunday mutaxassislarni tayyorlashda ta'limning sifatini oshirish, talabalarning yangi o'quv materillarini samarali o'zlashtirishdan iborat. Bunda ta'lim texnologiyalarining ayniqsa, interaktiv usullarining o'rni alohida ahamiyatga ega.

Bitiruvchi O'rinov Dilshodning tanlagan mavzusi shu maqsadga qaratilgan bo'lib, ish kirish, ikki bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ob'yekti, predmeti, maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Ishning birinchi bobida tarix fanlarini o'rganishda ta'lim texnologiyalaridan ayniqsa, “Antik davr tanga pullari”, “Numizmatika” fanini o'rganishda interaktiv usullardan foydalanish imkoniyatlari, tarix fanlari jumladan, “Numizmatika” fanini o'rganishda qo'llash mumkin bo'lgan interaktiv usullar haqida fikr yuritilgan.

Ishning ikkinchi bobida “Numizmatika” fanini o'rganishda interaktiv usullardan foydalanish amaliyoti: mavzusini o'rganishda “Klaster” interfaol usulidan foydalanish, “Vizantiya, Xitoy tanga zarbi an'analari” Turk xoqonligi tangalariga ta'siri” o'rganishda “Venn diagrammasi” interfaol usulidan foydalanish masalalari yoritilishiga harakat qilingan.

Umuman Bitiruvchi O'rinov Dilshod tomonidan “O'rta asrlar Yevropa davlatlari numizmatikasini o'rganishda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish” mavzusidagi malakani himoya qilish ishi talab darajasida bajarilgan, yakunlangan ish bo'lib, ishni himoyaga tavsiya etish mumkin.

NDPI “O'zbekiston tarixi”
kafedrasi mudiri:

T.F.N. X.R. Qurbonov

**O'rinov Dilshod Normurodovichning “O'rta asrlar Yevropa davlatlari
numizmatikasini o'rganishda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish”
mavzusidagi malakaviy bitiruv ishiga**

T A Q R I Z

Ma'lumki, ta'lim texnologiyasini ayniqsa, tarix fanlari dars jarayonida qo'llash, mustaqil ravishda qaror qabul qila oladigan, maqsadlarni belgilay oladigan va amalga oshira oladigan, o'z faoliyatni ongli baholay oladigan faol shaxsni shakllantirish muammosi dolzarb bo'lib kelmoqda. Bitiruv malakaviy ishida O'rta asrlar Yevropa davlatlari numizmatikasini qiyosiy tahlil usullaridan foydalanib o'rganishni bosh vazifa qilib olingan. Binobarin, O'rta asrlar Yevropa davlatlarining Osiyo mamlakatlari tangalariga ta'siri nihoyatda katta. Bitiruv malakaviy ishida Yevropa davlatlari balki, Vatanimiz taraqqiyot bosqichlari davrlari tarixini va xalqimizning jahon sivilizatsiya qo'shgan hissasi yoritilishiga harakat qilingan.

“Numizmatika” fanini o'rganishda interaktiv usullardan foydalanish ya'ni qiyosiy tahlil usulidan foydalanish, tarixiy haqiqatni oydinlashtirishga, tarixiy voqealarning sabab va maqsadlari turlicha baholangan yoki ziddiyatli qarashlarning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazarda qaraganda mazkur bitiruv malakaviy ishi o'z mohiyati bilan dolzarbdir.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy qisim, ikki bob, xulosa va foydalangan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish qismida o'rganilayotgan mavzuning dolzarbligi, o'rganish darajasi va o'rganishdan qo'yilgan maqsad va vazifalari yoritishga harakat qilingan.

Ishning birinchi bobida, tarix fanlarini o'rganishda ta'lim texnologiyalaridan ayniqsa, “Numizmatika” fanini o'rganishda interaktiv usullardan foydalanish imkoniyatlari, “Antik davr tanga pullari”, “Numizmatika” fanini o'rganishda qo'llash mumkin bo'lgan interaktiv usullar haqida fikr yuritilgan.

Ishning ikkinchi bobida, Vizantiya, Xitoy tanga zarbi an'analarininig Turk xoqonligi tangalariga ta'siri o'rganishda interaktiv usulidan foydalanish, Vizantiya,

Xitoy tanga zarbi an'analarininig Turk xoqonligi tangalariga ta'sirini o'rganishda "Venn diagrammasi" interfaol usulidan foydalanish masalalari yoritilishiga harakat qilingan.

Bitiruv ishida yangi adabiyotlar va manbalardan unumli foydalanilgan. Shuningdek, davriy matbuotlardan unumli foydalanganligi ishni ahamiyatini yanada oshirgan. Xulosalari ijobiy. Jumladan, bitiruv malakaviy ishida ayrim kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan. 14 - 51 betlarda orfografik xatolar uchraydi. Lekin bu kamchilik bitiruv ishini ahamiyatini tushurmaydi. Bitiruv ishini DAK ning ochiq yig'ilishida himoyaga tavsiya etaman.

Navoiy shahar 6-umumiy o'rta
ta'lim maktabi direktori:

X.M.Bo'ronova

Navoiy shahar 6-umumiy o'rta
ta'lim maktabi Tarix fani o'qituvchisi:

J.Aslonov